


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JAMOL JALOLOV, GULNORA MAHKAMOVA,  
VASILA MAMADAYUPOVA, LOLA ISMATOVA

# INGLIZ TILI O'RGATISH TEXNOLOGIYASI

*Pedagogika kasb-hunar kollejlari talabalari uchun o'quv-  
metodik qo'llanma*



923119

TOSHKENT – 2010

Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, milliy istiqlolni mustah-kam�ash damlarini boshidan kechirayotgan bir davrda yurtimiz kelajagi bo'lmish yosh avlod tarbiysi oldida turgan vazifalardan biri har tomonlama barkamol shaxsni voyaga yetkazishdir. Bu sharafla va mas'uliyatli ishda ta'lif-tarbiya tizimining boshlang'ich bosqichi bo'lmish mакtabgacha ta'lif muassasalari muhim o'rн tutadi.

J.Jalolov va boshqalar tomonidan tuzilgan «Ingliz tili o'rgatish texnologiyasi» nomli o'quv-uslubiy qo'llanma bo'lajak MTM chet til o'qituvchisi, shuningdek bu sohadagi yosh kadning eng yaqin yordamchisi bo'lib qoladi. Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma pedagogika kasb-hunar kollejlari uchun taylorlangan bo'lib, uning qismlarida maktabgacha (5-6) yoshdagi bolalarga inglizcha og'zaki nutq malakalarini shakllantirishga bag'ishlangan mashg'ulot va ta'limiyl o'yinlar to'g'risida keng yoritilib, ulardan lavhalar berilgan. Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalariga asoslangan holda tuzilgan bo'lib, undan foydalaniш natijasida har bir muallim o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha oladi, degan umiddamiz.

***Maxsus muхarrir:*** – filologiya fanlari doktori,  
professor **O'.Q.Yusupov**

***Taqrizchilar:*** – pedagogika fanlari nomzodi N.D. Shirinova,  
oliy toifali ingliz tili o'qituvchisi **R.X. Toshxonova**

TDPU Ilmiy Kengashining 11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan (2010-yil 17-iyun).

---

## I QISM

### MAKTABGACHA (5-6) YOSHDAGI BOLALARDA INGLIZCHA OG'ZAKI NUTQ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

#### **I.1. Maktabgacha ta'lismuassasasi (MTM) da chet til o'rgatishning dasturiy talablari**

1. Farzandlarimizning jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga ega bo'lishlari uchun biz, kattalar ularga birinchi navbatda ona tilini egallab olishlarida yordam berishimiz va uning negizida jahon tillarini, shu jumladan chet tilni o'rganishga qiziqish va xohish uyg'otishimiz zarur.

2. Barchaga ma'lumki, yaxshi rivojlangan nutq ko'p jihatdan butun bilim olish jarayonini belgilab beradi. Nutq bu aqlni rivojlanishkalitidir. Nutq qanchalik erta o'zlashtirib olinsa, bilimlarni o'zlashtirish shunchalik oson kechadi. Inson butun umri mobaynida borliqni anglash jarayonida ishtiroy etadi. Undagi bilishga bo'lgan ehtiyoj ko'p jihatdan til orqali qondiriladi. Muloqtga bo'lgan ehtiyoj doimo uni egallashda hal qiluvchi komponent hisoblanadi. Bola tilni kattalar va o'z tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyatda ishtiroy etish zarurligi uchun o'rganadi, buning uchun esa unga qaratilgan nutqni tushunishi va o'zi ham gapirishi lozim.

3. Bolalarga ingliz tilini o'rgatishga maktabgacha ta'lismarayonda ham katta ahamiyat berilayotganligi bejiz emas. Maktabgacha ta'lismarayonda mamlakatimizdagi uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini bo'lib, bolalarning kelgusida ta'limi davom ettirishi, ularning ushbu bosqichda qanday bilim olganligiga bog'liqdir.

4. Maktabgacha ta'limi rivojlantirish uchun (1) malakali tarbiyachilar, pedagoglarni ta'lim-tarbiya sohasidagi barcha muammolarni bartaraf qila olish darajasida tayyorlash va (2) maktabgacha ta'limning zamонавиј pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish zarur.

Bolaning hayotida o'yin juda katta o'rinn tutishi ma'lum. Aytish mumkinki, bola o'yin o'ynamaydi, u o'yinda yashaydi. Demak, ingliz tilini o'rgatmoqchi bo'lgan pedagog yashash tarzini buzmasligi, uni qiziqarli o'yin olamidan zerikarli ta'lismi olamiga tushirish mumkin emasligini ko'zda tutib faoliyat ko'rsatishi zarur. Chet til o'qitishda

o‘yin ichida ta’lim, ta’lim tarkibida o‘yin bo‘lishi ma’qul ko‘riladi. Ingliz tiliga o‘rgatishning foydali tomoni shundaki, maktabgacha yoshdagagi bolalar tevarak atrofda yuz berayotgan jarayonni tez ilg‘ab, o‘zlashtirib oladilar. Bu davrda fikrlash, so‘zlashish va eslab qolish qobiliyati yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Ma’lumki, ingliz tili o‘rtta va katta guruhlarda o‘rgatiladi, chunki bu yoshdagagi bolalar o‘z ona tillarida to‘g‘ri jumlalar tuzib bermalol so‘zlasha oladilar. Bundan tashqari bu yoshdagagi bolalarda taqlid qilish qobiliyati yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Ular tovushlarni to‘g‘ri ilg‘ab talaffuz qilishga tez va oson o‘rganadilar. Bolalar bog‘chalarida ingliz tili o‘rgatish dasturida maktabgacha yosh davridagi bolalarga ingliz tili o‘rgatishning muhim jihatlari aks etgan, ta’lim tarbiya maqsadini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari, metodik ko‘rsatmalar va o‘quv materiallari mazmuni ochib berilgan.

Ingliz tili o‘rgatish amaliy va ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga qaratiladi.

Umumiylididaktik printsiplar bilan bir qatorda bolalar bog‘chalarida tatbiq etish kerak bo‘lgan uslubiy qoidalar ham mavjud.

1. Jamoaviy yo‘nalishda mashg‘ulot olib borish qoidasi. Bu qoidaga ko‘ra o‘zaro muloqot shart-sharoitlarini yaratish, kerakli o‘quv materialini tanlash, mashqlarning kommunikativ foydali turlarini bajarish, bolalarning so‘zlashuv jarayonidagi faolligiga e’tiborni qaratish talab etiladi.

2. Ona tiliga tayanish qoidasi. Bunda ona tilida o‘zlashtirilgan hayotiy va lisoniy materiallari hisobga olinadi.

3. Munosabat qoidasi. O‘yin sharoitida guruh bolalari o‘zlarining va do‘stilarining bilimlarini taqqoslaydilar.

4. Og‘zaki ta’lim. O‘yin jarayonida olib borilib, bolalarning o‘rganish, tanishish faolligini oshiradi.

## TARBIYAVIY TA’LIM QOIDASI

1. Tarbiyaviy ta’lim qoidasi. Ta’limning vazifasi faqat bilim berish emas, balki bilim orqali hayotga, mehnatga, borliqqa to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni tarbiyalashdan ham iboratdir.

2. Rivojlanayotgan ta’lim qoidasi. Bolaga beriladigan bilim uni fikrlashga, o‘ynab kulishga odatlantirish, maqsadga muvofiq topshiriqlarni bajarishga yo‘nalishi lozim.

3. Me'yorni bilish, qiyin va oson mashqlarni o'zaro uyg'unlashtira olish qoidasi.

4. Tushunish va faollik qoidasi. Berilayotgan bilim foyda bersagina bola qiziqib o'rgana boshlaydi. Ularga singdirilgan yangi tushunchalar qanchalik jozibali tarzda yetkazilsa, shunchalik o'ng'ay o'zlashtiradi, fikrlash qobiliyatni rivojlangan sari ta'lif mashg'ulotini mustahkamlash oson ko'chadi.

5. Har bir bola qobiliyatining o'ziga xosligini hisobga olish qoidasi. Bu guruhdagi bolalarning har biriga alohida yondoshish, ularning qiziqishlariga e'tibor berish, rejalashtirilgan ta'limni berish. Har bir bolaning o'zlashtira olish qobiliyatini oshirishni nazarda tutgan holda o'zin orqali bolalarni jamoaga uyushtirish.

6. Ko'rgazmalilik qoidasi. Obrazli fikrlash, tasavvur qilish, xotirlash va so'zlashishni ko'rgazmalilik asosida o'rgatish. Ta'lim jarayonida bu faoliyatlar tabiiy yoki sun'iy sharoitda kechishi mumkin. Bola o'rganilayotgan tilda so'zlashib o'ynaydi, tildan nutqiy muomala (kommunikatsiya) sifatida foydalanib o'zin bajaradi. Bola o'zini o'yinga asos bo'lgan ertak yoki hikoya qahramonlari o'rniqa qo'yib ko'radi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida ingliz tili o'rta va katta guruh yoshidagi bolalarga o'rgatiladi. Mashg'ulotlarda turli qiziqarli o'yinlar, audio-video materiallar (ko'rgazmali qurollar)dan, ashula, she'r, kichkina sahna ko'rinishlaridan keng foydalilanadi.

MTMdA bolalarga ingliz tili o'rgatishdan asosiy maqsad ingliz tilida gapirish va tinglab tushunish malakalarini hosil qilishdir. MTM ingliz tili dasturi quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi:

1. Hayvonlar.
2. Tana a'zolari.
3. Ranglar.
4. 1 dan 20 gacha sanash.
5. O'yinchoqlar.
6. Oila.
7. Fasllar.
8. Uy jihozlari.
9. Sinf jihozlari.
10. Mening bog'cham.
11. Kiyimlar.
12. Sabzavot va mevalar.

Grammatik material grammatic qoida orqali tushuntirilmaydi, u nutqiy jarayonda so‘z va iboralar tarkibida o‘rgatiladi. Grammatik hodisalar ro‘yxati quyidagilardan iborat:

And / or

Ko‘rsatkich olmoshlari: this – that, these – those

Umumiy savollar: Are you a ...?; Is it a...?; Do you like...?, Have you got...?; Can you...? va ularga javoblar.

Maxsus so‘roq: What do you do?; What is it?; How are you?; What have you got?

Qisqa javoblar: Yes, it is. No, it is not. Yes, I am. No, I am not. Yes, I have. No, I have not. Yes, I do. No, I do not.

Ko‘plik sonlar.

Buyruqlar: Jump please; Don’t run; Come here; Repeat it.

Modal fe’l can.

MTMdA bolalarga ingliz tili o‘rgatish orqali ularning aqliy va estetik tarbiyasi rivojlantiriladi. Bog‘cha bolalariga ingliz tili o‘rgatishning boshlang‘ich bosqichida talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratiladi. Binobarin, boshlang‘ich bosqich ingliz tili o‘rgatishda hal qiluvchi palla hisoblanadi. Bolalarga ingliz tili o‘rgatishda og‘zaki nutq malakalarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Til materiali bolalarga og‘zaki shaklda o‘rgatiladi. Boshlang‘ich bosqich (birinchi yil) oxiriga kelib, bolalar quyidagi nutqiy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

1. Ingliz tilida tarbiyachi (muallim) nutqini tinglab tushuna olish.
2. Savollarga javob bera olish, hamda o‘zлari savol berishga qodir bo‘lish. What is your name? How old are you?
3. Do‘stlariga murojaat qila olish, ya’ni buyruq gaplar tuza olish. Stand up; Sit down; Come here.

4. She’r, ashula va tez aytishlarni yoddan bilish.

Ingliz tilini ikkinchi yil o‘rganish oxirida bolalarning quyidagi nutqiy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tarbiyachi (muallimning)ning ingliz tilida rasmlarga qarab gapirib bergen nutqini tinglab tushuna olish.

Do‘stlarga buyruqlar berish.

Tarbiyachi (muallim) yoki do‘sining savoliga javob berish, unga savol berish, suhbat o‘tkazish.

Ingliz tilidagi turli o‘yinlarda ishtirok etish, she’r va ashula aytish.

Birinchi yil talaffuz bo'yicha quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lislari kerak: inglizcha unli va undosh tovushlar; darak, so'roq va inkor gaplarda intonatsiya (ohang).

L e k s i k a: 300 ta so'z va so'z birikmalarini bilish.

G r a m m a t i k a: ko'plik sonini, artikl, fe'l, sifat, egalik va kishilik olmoshlarini, predloglarni va birdan o'ngacha sanashni bilishi kerak.

Ingliz tilini ikkinchi yil o'rgatishda quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lislari kerak.

T a l a f f u z bo'yicha: inglizcha tovushlar, urg'u, ohang.

L e k s i k a: 300 ta so'z va so'z birikmalarini bilish.

G r a m m a t i k a: ko'plik, artikl va fe'llar, sifatlar, olmoshlar, predloglarni va 1dan 20 gacha sanashni bilish.

Ingliz tili mashg'ulotlarini o'tishga muayyan metodik talablar qo'yiladi:

MTM bolalariga ingliz tilini o'rgatishda ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish kerak, ya'ni tarbiyachi (muallim) bolalar yoshiga qarab metodik usullarni tanlashi tavsiya etiladi. Mashg'ulotlar sayr, jismoniy mashq, musiqa va jonli o'zin tarzida olib borilishi mumkin. Mashg'ulotlar ko'rgazmali qurollar bilan o'zin shaklida o'tkaziladi. O'zin birinchi yil 80% mashg'ulotni, 6 yoshli bolalarda esa 50% ni tashkil qiladi. Harakatli va sodda o'zinlar, didaktik o'zinlardan keng foydalaniladi, masalan: My family; My kindergarten; What is it?; In the shop; English guest; What is wrong?; Pictures; Who is quicker? What do we do in the morning? etc.

## I.2. Inglizcha talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish

Ta'limning fonetika sohasidagi vazifalari. Quloqning tovushlarga va yangi tildagi so'zlarga o'rgatish, ikkinchi til (ingliz tili) tovush qurilishining asosiy qonuniyatlarini farqlash zarurligi, turli adabiy talaffuz qoidalari o'zlashtirish, tilning tovush qurilishi asosiy qoidalari, ya'ni undoshlarning qattiqligi/yumshoqligi, jarangli/jarangsizligiga qarab bir-biriga qarama-qarshi qo'yishni o'zlashtirib olish asosida, sheva bilan gapirishning oldini olish, milliy bolalar bog'chalarida bolalarga inglizcha so'zlashuv nutqini o'sishining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. To'g'ri adabiy talaffuzni mashq qilishni ingliz tilini o'zlashtirishning keyingi bosqichlarida ham davom ettirish darkor.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarga ingliz tili birinchi mashg'ulotlaridan boshlab, oxirgi darsgacha talaffuzni o'rgatish ustida maxsus mashqlar o'tkaziladi. Binobarin pedagog oldida quyidagi vazifalar turadi:

- Bolalarda artikulyatsiya apparatining harakatchanligini ta'minlash.
- Eshitish organlarini o'rganilayotgan til tovushlarini tinglashga o'rgatish.
- Inglizcha unli va undosh tovushlarning tilning orfoepik qoidalariga mos ravishda aytishini ta'minlash.
- Bolalar nutqining ifodaliligini, jumladan ularning ravon talaffuzini yo'lga qo'yish.
- Ona tili talaffuzining inglizcha talaffuzga salbiy ta'sirini bartaraf etish va h.k.z.

Mazkur vazifani bajarish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

Suhbatni eshitish va qaytarish.

Leksika va nutqiy na'munalar ustida ishlash.

Dialoglarni ijro etish.

Kichik she'r va qo'shiqlarni yod olish.

Hikoya va ertaklarni tinglash.

Tovush talaffuzi, urg'u va ohang ustida mashqlar bajarish.

Inglizcha talaffuzni o'rgatishda ingliz tili tovushlarini uch guruhga ajratish mumkin. (Ingliz tili va ona tilining tovush tizimlarini taqqoslash quyidagilarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi):

A. Oson o'zlashtiriladigan, fonetik jihatdan tahlil qilishni talab etmaydigan o'xshash tovushlar.

B. Talaffuzdagi farqi sezilarli bo'lmanan, maxsus mashqlar bajarishni talab etmaydigan tovushlar.

D. Faqat ingliz tiliga xos bo'lgan, binobarin ularning talaffuzini o'rganish maxsus tizimini talab etadigan tovushlar.

MTMda inglizcha mashg'ulotlarning tarkibiy qismi talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishdir, ya'ni so'zlarini to'g'ri eshitib ravon talaffuz qilishdir. Bolalarga ingliz tili tovushini ravon talaffuz qilishni o'rgatishda imitatсиya (taqlid) asosiy metodlardan sanaladi.

Ongli taqlid qilish.

Tushunmasdan (mexanik tarzda) taqlid qilish (tahlil va nutq namunalarida taqlid qilish; o'qituvchiga taqlid qilib tovush va intonatsiyani takrorlash).

Imitatsiya (taqlid) yoli bilan bolalar har bir so‘zni, iborani muallim aytganday qilib o‘rganib olishadi. Bolalarning eshitish va talaffuz ko‘nikmalarini kundalik nutqiy muloqotda ishlataladigan so‘z va iboralarda hosil qilinadi.

Bolalarda fonetik xatolar (mazmunga putur etkazmaydigan, lekin tovush shakli buziłgan) va fonologik xatolar (ham tovush shakli, ham mazmun buziladi)ni uchratish mumkin. Ikkinci toifa xatolarni bartaraf etish maxsus mashqlar bajarishni taqozo etadi.

Talaffuz mashqlari asosan mashg‘ulotning maxsus qismida – fonetik zaryadka tarzida o‘tkaziladi. Bu asosan qiziqarli va mazmunli o‘yinlar ichida, asosiy qahramon bilan (masalan Mr. Tongue, ingliz qizi yoki bola va boshqalar) bog‘liq holda bajariladi.

Shunday qilib, biz quyidagi mashqlarni talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish uchun tavsija etamiz:

Eshitib talaffuz qilish mashqlari.

Bolalarning fonematik eshitish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi mashqlar. Ular, o‘z navbatida quyidagilarga bo‘linadi:

A. Ongli holda va ong ishtirokisiz taqlid qilish mashqlari (takrorlash va taqlid qilish)

B. Ikkinci guruh – bu fonematik eshitish ko‘nikmalarini shakllantiradigan mashqlar. Bular ikki toifadan iborat:

Ikkinci guruh mashqlarini bajarayotganda bolalar nutqida tovushlarni tanib ajratadilar. Bu turdagи mashqlar ham quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) tovush va so‘zlarni farqlay olish mashqlari.

2) so‘zdagi tovushlarni tahlil qilish mashqlari.

Aytiganchalarni quyidagi mashqlar misolida namoyish etish mumkin.

Takrorlash va taqlid qilish mashqlari

Talaffuz so‘z, gap, she‘r, dialog va boshqalarda xor bilan va yolg‘iz aytish mashqlarini bajarish orqali yo‘lga qo‘yiladi.

1. Bolalar xuddi chivinday ovoz chiqaradilar[z-z-z]. Chivinning tili uzun. U tishlari orasidan chiqib ketadiganday. Keling tilingiz uchini tishingiz orasiga qo‘ying va tashqariga chiqib ketishiga imkon bermang, shunda [z] tovushi hosil bo‘ladi.

2. Keling bolalar, filning xartumini bilasizlar, labingizni dumaloq qiling va oldinga chiqaring, [uv] tovushini aytamiz, shunda [w] tovushi hosil bo‘ladi.

3. Bolalar, qani maymunni og‘zi qanaqa, u kulganda lablarini qanday qiladi – talaffuz qilamiz [e]. Bu tovushni xuddi maymun

**talaffuz qilgandek talaffuz qilamiz.** U kuladi va [æ] tovushi hosil bo‘ladi.

4. Bolalar, soat yurganda u qanday tovush beradi [ tik,tik,tik],soat orqada qolib ketsa mana bunday tovush beradi [ti:k, ti:k, ti:k], endi [i:] ni alohida aytamiz.

#### Tovushlarni farqlash mashqlari

Bolalarga tovushlar talaffuzidagi farqni sezishni o‘rgatish kerak. Shunda tovushni talaffuz qilishdagi xatoning oldini olgan bo‘lamiz. Masalan [- s], [- z], [z-s] tovushlarining talaffuzini olaylik. (He sees the trees. She has three books. I see three green pencils). [-z] tovushini farqlashda quyidagi mashqlarni o‘tkazish mumkin. O‘qituvchi rasmdagi 2ta ariga e’tibor berishni so‘raydi, biri Angliyada yashaydi, buni kiyimidan bilish mumkin, 2chisi esa shu erda yashaydi. Angliyalik ari g‘ing‘illaydi [ð], bizniki esa [ z] ovozini chiqaradi . Ular gul ustida uchrashib qolishdi va bir biri bilan suhabat qurishdi. Ular qanday suhabatlashishadi, galma –galdan talaffuz qilamiz [ ð], [z ]

[ r ] tovushini talaffuz qilish o‘zbek va rus bolalarida qiyinchilik hosil qiladi. Shuning uchun bu tovushga so‘zlarni tanlashimiz kerak: green, red, grey, brown. So‘ng o‘yin tarzida so‘z birikmalari beriladi: three grey cats, three brown bears, three green trees.

#### So‘zning toyush tahlili

So‘zlarni bir necha marta takrorlash oqibatida ular o‘z-o‘zidan esda qoladi. Shuning uchun bolalarning e’tiborini tovushlarga qaratish uchun quyidagi mashqlarni qo‘llash mumkin. Masalan: [ æ], [e] tovushini eshitsangiz qo‘lingizni ko‘taring: cat , fox, doll, pen, map, cup.

Bolalardan tovushni aytish talab qilinmaydi. Ularning xotirasida tovush timsoli hosil bo‘ladi, chunki bu tovushni ular ichki nutqida aytishlari tabiiydir. Talaffuz ko‘nikmalari quyidagi tartibda so‘z bilan tanishish paytida hosil bo‘ladi: namunaga taqlid qilish; tovush-artikulyatsiyasi bo‘yicha ko‘nikmalarni shakkantirish; bir muddatdan so‘ng namunani aytish; farqlanishi qiyin tovushlarni idrok etish va aytish; farqlashda qiyin tovushlarni qaytadan aytish.Tovushni so‘zda va yolg‘iz aytish. V.V.Bujinskiy tarafidan tavsiya etilgan quyidagi mashqni keltirishni lozim topdik. O‘qituvchi hayvonlar rasmini ko‘rsatadi va aytadi: I am a cat – Good morning! I am a dog – Good morning. (shunda salomlashish xatti-harakat bilan ko‘rsatiladi). Keyin o‘qituvchi aytadi «agar ingliz tilida salomlashishni o‘rganmoqchi bo‘lsangiz, oldin inglizcha tovushni talaffuz qilishni o‘rganish kerak.

Uning uchun musiqadagi tor ovozini eslash kifoya. Eshiting [in], keling harakat qilib ko'ramiz. Bir necha marta ta'laffuz qilingandan keyin, o'qituvchi «Sholg'om» ertagi qahramonlari bilan salomlashishni taklif qiladi. U ertak qahramonlari tasvirlangan rasmlarni, ya'ni hayvonlarni ko'rsatadi va aytadi: I am a cat, I am a dog va h.k.z. Bolalar har bir qahramon bilan salomlashishadi. Shunday tarzda ertalab bir-biringizni ko'rganingizda salomlashishingiz mumkin, deydi.

Endi mashg'ulotni rolli o'yin tarzida davom ettirish mumkin: bolalar ertak qahramonlarining niqoblarini kiyishadi va salomlashishadi. Ular baland ovozda, xursand bo'lib tegishli xatti-harakatlar bilan salomlashishadi. Bu mashqda bolalar so'zlarni, iboralarni mustahkamlaydilar. Ular nutq namunalariga taqlid qilishadi. Mashg'u-lot yakunida o'qituvchi aytadi: «Ertak qahramonlari bilan tanishish niyoyasiga yetdi. Keling, xayrashamiz» va ingliz tilida «Good bye» deyishadi. Bu iborani o'qituvchi bir necha bor takrorlab, bolalar e'tiborini pasayuvchi va ko'tariluvchi intonatsiyaga qaratadi. Keyin bolalar bir birlari bilan xayrashishadi. Talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishda she'rlar va tez aytishlar ham katta ahamiyatga ega.(qiyin tovushlarni o'rgatish uchun ilovada berilgan she'rlarga qarang).

### I.3. Inglizcha leksik ko'nikmalarni shakllantirish

Muloqot qilish, so'zlarni turli gaplarda, har xil vaziyatlarda mustaqil ravishda qo'llay olish demakdir. Bog'cha bolalarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, leksik minimumga ko'proq konkret ma'noli so'zlar kiritiladi: bolalar tevarak atrofi ifodalaydigan narsa va hodisalar nomlari(otlar), harakatni ifodalovchi so'zlar(fe'llar), rangni bildiruvchi so'zlar(sifatlar) va h.k.z.

Ingliz tilini o'rgatish jarayonida bolalarning so'z boyligi oshirib boriladi. Deyarlik har bir mashg'ulotda yangi so'zlar taqdim etiladi. Inglizcha so'zlarning ona tilidagi ekvivalentlari bilan ma'no doirasining mos kelish-kelmasligi, mavhum – konkret ma'no ifodalashi, mustaqil ma'noli – yordamchi so'z ekanligidan kelib chiqib, maxsus mashqlar o'tkaziladi. Muhimi minimal – kommunikativ darajada fikrni ifodalashga erishish, dasturiy mavzular doirasida tinglab tushunish va gapirish malakalariga ega bo'lishdir. Maktabgacha tarbiya muassasalarida chet til o'rgatish metodikasida leksika ustida ishslashning uch bosqichi tavsiya etiladi:

Birinchi bosqich – tanib olish. Tarbiyachi(muallim) bolalar bilan biron-bir buyum yoki narsani tanib olishga doir o‘yin o‘tkazadi. Bu o‘yinlarda bolalar u yoki bu buyumni anglatuvchi yangi so‘zni o‘rganib olishlari lozim.

Ikkinchchi bosqich – takrorlash. Bola tarbiyachi(muallim) ketidan buyumlardan birining nomini takrorlashi lozim. Bolalar o‘zlariga yoqib qolgan o‘yinchoq, kiyim, meva va hokazolarni tanlab olishadi va pedagogning ketidan ularning nomlarini takrorlashadi. Ushbu bosqichda yetarli o‘yinlarni o‘tkazish tavsiya etiladi.

Uchinchi bosqich – nomlash. Bola pedagog yordamisiz muayyan buyum nomini aytishi darkor. Buning uchun turli o‘yinlarni o‘tkazish tavsiya etiladi. Bolalarning ingliz tilidagi so‘zлarni o‘zlashtirib olishlariga doir bosqichma - bosqich ishlar ularni xotirada saqlab qolish va yangi vaziyatda qo‘llay olishni ta’minlaydi.

Ayrim metodistlar (Matetskaya, 1971) bu uch bosqichli ishni mana bunday ta’rif-tavsiif qiladilar:

1. Nutqiy amaliyotdan ajralgan ta’limiy tadbir. So‘z nutqiy vaziyatda qo‘llanmaydi.

2. Yangi so‘z tipovoy jumlada qo‘llana boshlaydi, o‘yinlar orqali nutqiy vaziyatda mashq qilinadi.

3. Yangi so‘zni nutq malaқalari tarkibida erkin qo‘llanishi kuzatiladi, uning ishtirokida syujetli-rolli o‘yinlar bajariladi.

Psixolingvistik tadqiqotlarga ko‘ra (K.I.Abdulla, 1993; R.Carter, 1998), so‘zlar semantik jihatdan umumlashgan tarzda turli guruhlar sifatida xotirada saqlanib qoladi. Shuning uchun MTM ingliz tilini o‘rgatish metodikasida so‘zлarni alohida tushuntirish shart emas. Bolaga chet tilni o‘rgatishda uning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bunda bolalarning hayotiy tajribalari, o‘rgangan so‘zları e’tiborga olinadi. Bolaning ingliz tilida nutqiy faoliyatini shakllantirish mexanizmi oliv nerv sistemasi bilan bog‘liqdir. Yangi so‘z rasmilar, predmetlar harakatlarni ko‘rsatish, zarur bo‘lganda tarjima qilish orqali o‘rgatiladi. Ko‘rgazmalilikdan foydalanish so‘z bilan predmet orasida mustahkam aloqa o‘rnatalishini ta’minlaydi. Yangi leksik materialni tushuntirishda asosan nutqiy o‘yinlar katta samara beradi. Z.N. Nikitenko tavsiya etgan mashqlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Yangi so‘z tushuntirilgandan so‘ng, ya’ni ma’nosи ochilgandan keyin, uni to‘g‘ri talaffuz qilishga e’tibor beriladi, so‘ngra bolalar bilan qiziqarli o‘yin o‘tkaziladi. Bolaning e’tibori qancha ko‘p

qaratilsa va so‘zni tez-tez takrorlasa, shunda u yaxshi eslab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladi. MTM bolalariga ingliz tili o‘rgatishda yangi so‘zlarni o‘rganilgan so‘zlar bilan takrorlash unumli bo‘ladi. Chet el MTMda [P.Merry; R.Carter; R.Tapia; K.Klein] ingliz tili o‘rganish metodikasida yangi leksika o‘rgatilganda mnemik usullar qo‘llash yaxshi natijaga olib keladi, ya’ni bolalarni muloqot qilishga yo‘llaydi. Leksikani anglash idrok etish – tushunish – esda saqlab qolish, keyin kerak paytda nutqda qo‘llashdek strategiyaga asoslanadi. Syujetli rolli o‘yinlar va ertaklarni sahnalashtirish kabi o‘yinlarda leksikani o‘rgatish tashkil qilinadi.

Total Physical Response – xatti-harakat bilan javob berish – bu nutq va harakatni muvofiqlashtirish usulidir. So‘zlar va nutqiy namunalalar verbal holda esda olib qolinadi. Bolalar so‘z va nutqiy namunalarni harakat, imo-ishoralar bilan takrorlaydilar. Bu usul bolalarning og‘zaki nutq ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda ishlataladi. So‘zning ma’nosiga katta ahamiyat beriladi, grammatika esa induktiv tarzda taqdim etiladi. Masalan, buyruq gaplar: Take the toy! Go to the door!

Key words— Tayanch so‘zlar. Bu usulni ishlatishda bolalar so‘zlarni ona tiliga tarjima qilib o‘rganadilar, leksik ingliz tili so‘zlarini ko‘proq tovush va ma’nosini bilan eslab qolinadi. Masalan; Dog – kuchuk, chunki rus tilida «dog» so‘zi kuchuk parodasini anglatadi. Yoki squirrel olmaxon, bu so‘zda ikkita (rr) harfi bor. Shuning uchun o‘qituvchi «bu so‘zni bolalar, eslab qoling unda ikkita (rr) bor» deb aytadi.

Perception and Action – Idrok etish va harakat qilish. Bu usul predmetni atrof-muhit bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Masalan: bola yuradi – a boy goes, qushlar uchadi – birds fly.

Word - Families – so‘z oilasi. Masalan: a boy, a girl, children. Bolalar bu so‘zlarni birga eslab qoladilar va nutqda ishlatadilar. The boy is in the room. The girl is in the room. Children are here. Hamma yangi so‘zlar nutq o‘yinlarida takrorlanadi. Bunda bolalar aktiv ishtirop etadilar. Asosiy eslab qolish usullaridan biri – bu fonetik assotsiatsiya metodi, faollashtirish metodi (bolalar bir xil tovushli so‘zlar ishtiropida qiziqarli hikoya tuzadilar), ma’lum qilish metodi (predmet haqida tasavvurga ega bo‘lish).

Leksik material bilan ishlash uchun nutqiy namunalarni ko‘rib chiqamiz. Bolalarga rangli kartochkalar tarqatiladi, unda predmetlar tasvirlangan: a boy, a girl, a room, a window, a floor, a wall, children, a

door. O'qituvchi bu so'zlarni mavzuiy guruhlarga bo'ladi: 1. a boy, a girl, children. 2. a floor, a window, a door, a wall, a room.

1— nutqiy namuna. O'qituvchi bolalarga rasmni ko'rib chiqishni taklif qiladi, u erda bir nechta o'g'il va qiz bolalar tasvirlangan. Keyin u rasmni ta'riflaydi . This is a picture. This is a girl. This is a boy. They are children. Bundan keyin o'qituvchi har bitta bolaga topshiriq beradi: o'z kartochkalarida o'g'il va qiz bolalarni chizadilar. Bir necha daqiqadan so'ng «Stop» deyiladi va o'qituvchi eng yaxshi chizilgan rasmlarni olib, bolalarga ko'rsatadi va ingliz tilida aytadi: This is a picture. This is Vali's picture. He has a good picture. There are many children in his picture. Endi savollar beradi: How many? How many boys/girls are there? (Let's count). Bolalar javob beradilar: «5 children ...» o'qituvchi iborani tugatadi: « .... are in this picture». O'qituvchi savol beradi: How many boys and girls are there in this picture? Agar bola sanashda xato qilsa, o'qituvchi boshqa bolani yordam berishini so'raydi: No, there are three boys and girls. Keyin har bitta bola doskaga chiqib o'zining rasmini ko'rsatadi va javob beradi, rasmda nechta bolalar bor, undan nechta qiz va o'g'il bola.

Nutqiy namunalarni kengaytirish va o'rganilgan leksik materiallarni takrorlash uchun o'qituvchi bolalarning ismi, ularning yoshi kabilarni so'raydi.

2—nutqiy namuna. O'qituvchi bolalarga xonani va turgan joyni harakat bilan ko'rsatib, yangi so'z va iboralarni tushuntiradi: This is a room. We are in the room. This is a door. I am at the door. This is a floor. I am on the floor. This is a wall. I am at the wall. Bolalar o'qituvchining ketidan xor bo'lib takrorlaydilar. Keyin o'qituvchi buyruq beradi: Ahmad, go to the door! Narghiza, go to the wall!, so'ng o'qituvchi bolalar bilan o'ynaydi. Masalan, koptokni otib, Oyshaga aytadi. «Put the ball on the table/floor, dialogda har bir bola ishtirok etadi:

The boy is at the door. Who is he?

He is Jalol. He is a boy.

The girl is at the wall. Is she Saida?

No, she is Nigora. She is a good girl.

The ball is on the floor. What is it? What colour is it?

It is a ball. It is a blue ball.

Is it my toy?

No, it is my toy.

Are the wall, floor, door in the room? – Yes, they are.

Bundan so'ng o'qituvchi harakat o'yinini o'ynashni ingliz tilida taklif qiladi: Touch the floor with one hand! Touch the floor with both hands! (with right/left hand). Touch the wall with two hands (left/right hand). Boys, go to the right wall, girls, to the left wall! Go back to your seats!

Bu namunalarni tugata turib o'qituvchi chizilgan rasmlarga (o'g'il, qiz bola, onani, polni, devorni, shipni, eshikni, derazani) chizishni so'raydi. Keyin bolalar o'qituvchi ketidan so'zlarni takrorlaydilar.

3—nutqiy namuna. Tana a'zolari. O'qituvchi bir odam tasvirlangan rasmni ko'rsatadi, har bir tana a'zosini ko'rsatib, uni ingliz tilida talaffuz qiladi. Bolalar o'qituvchi ketidan takrorlaydilar, talaffuz qiladilar.

Navbatdagi bosqichda o'qituvchi buyruq va iltimos so'zlarini ishlatalib, ingliz tilida bolalarga aytadi:

Rise your right hand!

Put your left hand on your head!

Touch your neck with both hands! Put your hands on your shoulder!

Rise your right/left leg!

Turn your body to the right/left!

Rise your hands, clap!

Turn your body to the right/left!

Bend your body and touch the floor with hands!

Oldin bu buyruqlarni o'qituvchi o'zi bajaradi, so'ng butun guruh bajaradi va, nihoyat, va har bir boladan buyruqni bajarishni so'raydi.

O'tilgan yangi so'z va iboralarni mustahkamlash uchun har bir bolaning o'zi do'stiga buyruq berishni iltimos qiladi. So'ng o'qituvchi bolalarga tayyor rasmlarni beradi, unda qiz va o'g'il bola tasvirlangan bo'lib, ularni tana qismlarini ranglarga bo'yashni va bu so'zlarni ingliz tilida takrorlashni buyuradi. Shunday usulda bolalar so'zlarni talaffuz qiladilar, ramz bilan chizadilar yoki bo'yoqlar bilan bo'yaydilar va nutqiy namunalarni talaffuz qiladilar. Shu tarzda bolalar yangi leksikani eslab qoladilar.

Bundan tashqari ko'nikma va malakalarni hosil qilish uchun boshqa mashqlarni ham bajarish mumkin. Masalan, o'qituvchi sonlarni noto'g'ri tartibda aytadi. Bolalar uning xatosini topishlari va to'g'rilib aytishlari kerak.

#### **I.4. Bog'cha bolalarining og'zaki nutqida grammatik ko'nikmalarni shakllantirish**

Grammatik konstruktsiya nutqiy namunalarni, ingliz tili tovushlarini talaffuz qilish uchun aniq sharoitlar yaratib berish kerak. Bolalarga ingliz tilini o'rgatishda milliy sharoitlarni ko'zda tutib, dastur va reja tuzish kerak. Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikma va malakalarini hosil qilishda nutqiy amaliyot qancha ko'p bo'lsa, shuncha tez va puxta maqsadga erishiladi.

Ingliz tili grammatikasini o'rgatish nutqiy namunalar asosida, o'yin tarzida, maxsus usul va yo'llar bilan amalga oshiriladi. Masalan,

1. O'qituvchi gap tuzadi, uni bolalar diqqat bilan eshitadilar. So'ng bolalar gapdag'i har bir so'zni talaffuz qiladilar, bunda jihozlar, ko'rgazmali qurollar ko'proq ishlataladi. Kerak bo'lsa ona tiliga tarjima qilib beradi, so'roq va inkor etuvchi gaplarni jihozlar asosida yoki ramzlar bilan tushuntiriladi. Masalan, o'qituvchi o'yinchoq--ayiqni bolaga ko'rsatib aytadi: This is a bear. It is a bear. Bolalar o'qituvchi ketidan qaytarishadi. Keyin qurbaqani ko'rsatib, aytadi. It is not a bear. It is a frog. Is it a bear? Bolalar javob beradilar: No, it is not. What is it? It is a frog. Bolalar yangi so'z ma'nosini tushungandan so'ng, o'qituvchi ularni talaffuz qilishga undaydi. Bolalar alohida va xor bo'lib darak, so'roq va bo'lishsiz gaplarni takrorlaydilar.

2. Ko'plik soni bilan tanishtirish uchun quyidagi o'yin qo'l keladi. O'qituvchi ko'p narsalarni ko'rsatib, ramzlarni ishlatishi mumkin.

— Bolalar mana bu rasmga qarang. It is a girl. It is the second girl. So'ng o'qituvchi qizil tayoqchani ko'rsatib ko'plik songa e'tiborni qaratadi. Two girls are on the picture. Demak biz 2 yoki 3 ta narsa haqida gapisak, so'zga [s] yoki [z] qo'shiladi. dog – dogs, pen – pens. Shundan so'ng o'qituvchi boshqa so'zlar bilan ko'plik sonni ishlataladi. U qizil tayoqcha ko'tarsa, ko'plik son [s] ishlataladi, sariq tayoqcha ko'tarsa [z] ishlataladi. [iz] qo'shiladigan so'zlarni ham albatta olish kerak; masalan, box – boxes, dress – dresses, dish – dishes.

3. Bolalar darak, so'roq va bo'lishsiz gaplarni tuzishlari uchun rangli kubiklarni, har xil ramzlarni ishlatishlari mumkin. Bolalar kubiklar orqali gap tuzishni o'rjanadilar. Masalan: qizil kubik – ega, sariq kubik – kesim, yashil kubik – to'ldiruvchi va hokazo (Bolalarga kesim, ega so'zлari aytilmaydi).

I like an ice-cream.

qizil – sariq – yashil

This is a bear.

qizil – sariq – yashil

Bo‘lishsiz gap tuzish uchun yana bitta oq kubik ishlatishimiz mumkin, so‘roq gap uchun esa kubiklarning o‘rnini o‘zgartirishimiz mumkin.

Is this a bear?

sariq – qizil – yashil

Do you like a toy?

pushti – qizil – sariq – yashil

Bolalar kubiklar yordamida so‘roq, bo‘lishsiz, darak gaplarni tuzib ranglarni o‘zgarishi orqali gapda so‘z tartibini bilib oladilar.

4. Aniq va noaniq artiklarni o‘rgatishda ko‘proq rangli dumaloq shakllarni ishlatishimiz mumkin. «a» – gunafsha rang, «an» – siyoh rang, «the» – och yashil rang, ular so‘zlarga (otlarga) yopishtiriladi. Masalan, so‘zlarda: a toy – an apple, the toy – the apple, so‘ng nutqiy namunalarda o‘qituvchi turli rangli dumaloqcha shakllarni ko‘tarib aytadi. It is a fox. It is a red fox. The fox is in the box.

5. «Oziq ovqatlari» mavzusi o‘tilganda kichkina so‘zlarni «a, an, the,» biz oziq ovqatlarga yopishtirib qo‘ymaymiz.

– Bolalar, biz oziq ovqatlarni, sabzavot va mevalar nomlarini kichkina so‘zlarsiz talaffuz qilamiz; butter, bread, milk, carrot, apple, banana. Bolalar bu so‘zlarning talaffuzini takrorlaydilar.

– Bolalar, endi men hayvonlarning nomlarini aytaman. Siz esa ular nimani yaxshi ko‘rishlarini aytasiz. Lekin like so‘ziga [s] ni qo‘shamiz.

Rabbit – it likes carrots.

Monkey – it likes bananas.

Elephant – it likes apples va hokazo.

Endi siz magazinga borasiz va xohlagan narsangizni sotib olasiz. Lekin oldin ingliz tilida salomlashib, so‘ng xohlagan narsangizni so‘raysiz.

– Good morning!

– Good morning !

– I want to have apples.

– Take apples.

– Thank you !

– You are welcome !

Ramz bilan tasvirlangan rasmlarni quyidagi gaplarda anglash uchun ishlatish mumkin.


I am fine (OK)

I am so-so

I am bad



923119



7. Shunday gaplarni anglash, tushunish ko'nikmalarini hosil qilish va amaliyotda ishlatish malakalarini hosil qilish uchun buyruq va iltimos gaplar juda foydalidir. (qarang Total Physical Response). Chunki grammatik materiallar nutqiy namunalar asosida o'rgatiladi.

### I.5. MTM bolalari og'zaki nutqidagi xatolarni bartaraf etish usullari

MTM bolalarining inglizcha nutqida grammatik qatorni shakllantirish uzoq davom etadigan jarayondir. Bolalar nutqini nafaqat mashg'ulotlarda, balki ularning kundalik hayotida ham kuzatib borish mumkin.

Tuzatilmagan grammatik xato nafaqat so'zlayotgan bolada, balki ayni paytda, uni tinglab turgan barcha bolalarda noto'g'ri fikrni mustahkamlash demakdir. Xatoni xushmuomalalik va ehtiyyotkorlik bilan tuzatish lozim, bu ishni bola ortiqcha hayajonlanib turgan paytda amalga oshirmaslik kerak. Uning nutqiy xatosini takrorlamaslik lozim, yaxshisi to'g'ri shaklni bir necha marta takrorlagan ma'qul. Tuzatishni baland ovozda bajarish kerak, toki uni barcha bolalar idrok etishsin.

Pedagog nutqi bolalar nutqining shakllanishida va rivojlanishida katta ta'sir kuchiga ega. Bolalar muallim nutqining ravonligi ya ifodaliligini his etadilar. Shu bois pedagog o'z nutqini doimo takomillashtirib borishi, uning grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishiga intilmog'i kerak.

MTM bolalarining nutqida grammatik xatolarni tuzatish yo'l va usullarini quyidagicha ta'riflash ma'qul.

FONETIKA. Unli tovushlarni talaffuz qilishda sodir bo'ladigan tillararo interferentsiya.

[æ] Bolalar bu tovushni o'zbek tilidagi «besh» so'ziga o'xshab talaffuz qiladilar. Uni maymun kulganday talaffuz qilish kerak [æ-æ-æ]

[e] – maymun xafa bo'lganda

[e:] – maymunni jahli chiqqanda

[i] quyidagi so'zlarda kid, kitty o'zbek so'zi «biz» talaffuz qilinadi. Ingliz tilida takrorlang. Kid, kitten.

Diftong va triftonglar quyidagi so'zlarda owl, chair, bear, pear, flower, fire talaffuz qilinadi. [au, εə, iə, aiə, auə ]

TIL ICHKI INTERFERENTSIYASI

Tovushlar o'rtasida uchraydi [e-e]

Tovushlarni ajratish mashqi – bolalar maymun qanday kuladi ko‘rsating [e], maymun xafa bo‘lganda [e-e-e], qo‘y qanday tovush chiqaradi [ be-be-be], maymun jahli chiqqanda [ e:- e:- e:]

Uzun va qisqa unli tovushlarni talaffuz qilinayotganda xatolar sodir bo‘ladi. Bolalar talaffuz qiling [i-i:] – [i-iii], soat qanday yuradi [tik-tik], orqada qolgandachi [tiik-tiik]

Keling xirgoyi qilib ko‘ramiz. [ʌ- a:] – [a – aaa] talaffuz qiling [bʌbl-gla:s]

[o-o:] - [o-ooo] talaffuz qiling [not-fo:k]

[u-u:] - [u-uuu] eshikni taqillatamiz [tuk-tuk], endi charchab qolganimizda [tuuk-tuuk]

## **UNDOSH TOVUSHLARNI TALAFFUZ QILISHDAGI TILLARARO INTERFERENTSIYA**

[k]- tipratikan ixragandagi tovush, o‘pkangizdan havo chiqaring [k- k- k]

[t]- tilingizni uchini tishingizni tepasiga qo‘ying va ayting [t-d]

[d]- tilingizni uchini tishingizni tepasiga qo‘ying va ayting [d-d]

[l]- tilingizni uchini tishingizni tepasiga qo‘ying va ayting [lemon]

[p]- keling ko‘rsatamiz paraxodni trubasidan qanday qilib tutun chiqadi, truba tor, havoni itarib chiqarishimiz kerak. [p-p-p]

[h]- nafas olamiz va chiqaramiz (havoni) [h-h-h]

[r]- tilingizni tepaga ko‘taring va xuddi kuchuk irillaganday talaffuz qiling [r-r-r]

[θ]- tilingizni tishingiz orasiga qo‘ying va ilondek tovush bering [θ-θ-θ]

[ð]- tilingizni tishlaringiz orasiga qo‘ying va aridek g‘o‘ng‘illang [ð-ð-ð]

[w]- lablaringizni dumaloq qilib cho‘chchaytiring xuddi filnikidek [w-w-w]

[tʃ ]- «choy» so‘zini talaffuz qiling.

## **TIL ICHIDAGI INTERFERENTSIYA**

[t-d] -Teddy Bear – Daddy Ted

[θ-ð] -Three thin trees

[ð-z] -This is Zoo.

[θ-s] - This is a thin snake.

[s-z]- I can see a zebra in the Zoo.

[n-ŋ] - xuddi qo'ng'iroqday talaffuz qilamiz [din-din]

[v-w]- Violet, wolf wants water.

[f-v]- fruit-vegetable

## LEKSIK BOSQICH

Cold – cool. It's cold in winter. It's cool in autumn.

Ride-drive. I can ride a bike. I can drive a car.

Child – children. Bola – bolalar. This is a child. These are children.

Farqini tushuntiring.

Goose – geese. G'oz – g'ozlar. There is a goose. There are geese.

I am full. – I am hungry. Mening qornim to'q. Men ochman.

To play a game. Let's play a game.

Home – house. There is a house. It's my home.

Food – meal. Animal cannot live without food. I have breakfast in the morning. It's my first meal.

The hand of the clock – rasmlarni ko'rsating, u erda soat millari xuddi qo'lday ko'rsatilgan.

Legs – feet – paws. Giant's legs are long. The dog has four paws. Doll's feet are little.

Small – little. This dog is not little, it's old. It's very small.

High – tall. Botir is a tall boy (bo'yи baland). This house is high (baland uy).

## GRAMMATIK BOSQICH

Nutqiy namunalarning darak, so'roq va bo'lishsiz gaplardagi so'z tartibi. Ramzlar bo'lmish rangli kubiklarni tayanch vosita sifatida ishlatalish mumkin. Bunda bolalarga rangli kubiklarni gapdagi so'z tartibida ko'rsatish mumkin, ya'ni ega, kesim va hokazo. Masalan: It is a doll. (yashil – qizil – sariq).

Aniq va noaniq artikllar – Bunda ham qo'shimcha ranglarni ishlatalish mumkin. The – pushti rang, «a» va «an» artikllari – och yashil rang.

Otlarda ko'plik son. Bolalarga muayyan so'zlarga «s» yoki «es» qo'shilishini tushuntirish.

## **I.6 Bog‘cha bolalariga tinglab tushunish va gapirishni o‘rgatish**

MTM bolalarining nutqiy namunalaridan biri bu gapirishdir, bunda tinglash bilan birga og‘zaki muloqot sodir bo‘ladi. Shunday ekan biz MTM bolalarida tinglab tushunish va gapirishning ko‘nikma va malakalarini hosil qilishimiz kerak (yoki shakllantirishimiz kerak). Birinchi navbatda bolalarni tinglab tushunishga o‘rgatishimiz lozim. Har bitta so‘z, iboraning ma’nosini to‘g‘ri tushuntirib berish, atrof muhit bilan bog‘langan holda olib boriladi. Bu bolalarning fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. So‘zlarni predmetlar, ko‘rgazmali materiallar bilan tushuntirish kerak, hamda turli o‘yinlar tarzida olib borish mumkin.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni tarbiyalash va o‘qitish tizimida bola faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli o‘yinlar muhim o‘rin tutadi. O‘yin jarayonida bolalarning ruhiy sifatlari va shaxs sifatidagi xususiyatlari yuqori sur’atlar bilan shakllanadi, ularning diqqati va xotirasi rivojlanadi. O‘yin sharoitida bolalar o‘z diqqat e’tiborini bir joyga yaxshiroq jamlay oladilar, tez va ko‘p eslab qoladilar.

Bola o‘ynash orqali o‘qiydi, o‘rganadi, chunki o‘qishni tilning yordamisiz amalga oshirib bo‘lmasligi bois, o‘yin jarayonida bolalarda nutq rivojlanadi, lug‘at boyiydi.

O‘zbekiston bolalar bog‘chalarida bolalarga inglizcha so‘zlashish nutqini o‘rgatishda o‘rganilayotgan tilda faol nutqqa undovchi o‘yinlarga katta ahamiyat beriladi. Ayni paytda o‘yining afzallikkari quyidagilardan iborat:

O‘yinda bolalarni faol nutqiy harakatga undovchi aniq vaziyatlar yaratiladi.

O‘yinda bolalarga tilni o‘rgatish jarayonida zarur bo‘lgan nutqiy mashqlar uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

O‘yinda har bir so‘z harakat bilan bog‘langan, aniq mazmun bilan to‘ldirilgan, bu esa o‘quvchilarga yangi so‘zlarni tushunish va ularni o‘zlashtirishni osonlashtiradi. Ayrim so‘z birikmalari va gaplarni ko‘p martalab takrorlash, bu nutqiy birliklarni puxta eslab qolish va ularni o‘rganilayotgan tildagi faol lug‘atga kiritishga yordam beradi.

O‘yindan samarali foydalanish maqsadida tarbiyachi uning maqsadini va o‘yin jarayonining borishini, bu o‘yinda o‘zining va bolalarning tutgan o‘rnini aniq tasavvur qilish lozim. Mazmunni tanlash esa bolalarning rivojlanish darajasi va tarbiya vazifalaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Mazmun bolalarning imkoniyat darajasi

va ular uchun tushunarli bo‘lishi lozim, lekin u bolalarda o‘yinga bo‘lgan qiziqishning yo‘qolmasligi uchun juda ham soddalashtirib yuborilmasligi kerak.

Boshqa millat bolalarini ingliz tiliga muvaffaqiyatl o‘qitish uchun o‘yinlar tizimini yaratish, shuningdek, bu tizimning amaliyotga joriy etilishini ta‘minlovchi metodik usullarni ishlab chiqish zarur. Bolalarda nutqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga (inglizcha nutqni tinglay bilish va tushuna olish, ingliz tili tovushlarini to‘g‘ri aytish, gap tuzish, berilgan savolga javob qaytarish va o‘zi ham unchalik murakkab bo‘lmagan savollar berish) yordam beruvchi o‘yinlar quyidagilarga bo‘linadi:

Birovlarning rolini tushuna olish qobiliyatini shakllantiradigan o‘yinlar.

Ingliz tilida gapirish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan o‘yinlar.

Bog‘cha bolalariga ingliz tili tovush, so‘z va ibora ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun quyidagi o‘yinlarni qo‘llash mumkin: «Listen and recognize». O‘qituvchi so‘zni, iborani, so‘z birikmasini aytadi. Bolalar tinglab tushunganliklarini tegishli harakat bilan ifodalaydilar: chapak chalib, o‘ynab, sakrab va hokazo. Bir xil so‘z ibora va gaplarni o‘qituvchiga taqlid qilib takrorlaydilar. Xato qilgan bolalar joylariga o‘tiradilar.

Ikkinchchi yil o‘rgatishda yanada qiyinroq topshiriq berish mumkin, masalan: gapni to‘g‘ri tuzilganligini topish. O‘qituvchi qo‘g‘irchoqni ko‘rsatib, uni ta‘riflaydi: It is a doll. Her name is Ann. It is beautiful. I can play with it. Shundan so‘ng bolalar ham xuddi shunday tarzda takrorlashlari kerak.

Bog‘cha bolalariga ingliz tilini o‘rgatishdan maqsad ularda muloqot vositasi sifatida eng oddiy inglizcha nutq malakalarini shakllantirishdir. Bu nutq dialog va monolog shaklida bo‘lishi mumkin. Muloqotning ko‘p qo‘llaniladigan shakli dialogdir, shuning uchun bolalarga inglizcha so‘zlashuv nutqini o‘rganishning dastlabki bosqichida tarbiyachi dialogik nutqni rivojlantirishga e’tibor qaratishi kerak.

O‘qitishning boshlang‘ich bosqichidan bolalar berilgan savolni tushunishi va unga javob qaytarishni, shuningdek, o‘zлари savol berishni o‘rganishi darkor. Savol berish nafaqat ingliz tilini o‘zlashtirishda, balki ona tilini o‘rganishda ham juda qiyin vazifa hisoblanadi. Buni ta‘lim jarayonida hisobga olish zarur. Inglizcha lug‘atni boyitish jarayonida dialogik nutqni rivojlantirishga oid ishlarni yanada murakkablashtirish lozim. Mashg‘ulotlarda shunday vaziyatlar yaratish

zarurki, toki har bir bola ingliz tilida gapirishga intilsin va ularda shu tilda gapirish istagi bo'lsin.

Ushbu maqsadda kutilmaganlik xususiyatlaridan ko'proq foydalanish kerak, bu esa bolalarda ingliz tilida gapirayotgan kishiga nisbatan qiziqish uyg'otish imkonini beradi. Inglizcha so'zlashuv nutqini rivojlantirish nafaqat mashg'ulotlarda, balki undan tashqarida, bolalarning erkin faoliyatida ham davom ettirish lozim.

Til muloqoti asosan 2 turda olib boriladi: dialog va monolog. MTMda ko'proq dialog shakli ishlataladi. Dialogni keng tarqalgan turi – polilog. Polilog xuddi dialog xususiyatlariga ega. Polilogni eng yaxshi usullaridan biri – bu rolli o'yinlar kiritilgan holda ertakni sahnalaştirishdir.

Dialog turlaridan yana biri – savol - javobdir, biz uni MTMda ham ko'p ishlatamiz. Quyidagi dialog namunalarini tavsiya etamiz. Ularni biz ikki qismga bo'ldik, ular bog'cha bolalari tomonidan oson qabul qilinadi.

Birinchi qism:

Salomlashish

Xayrplashish

Good morning/day, evening/night!

Good bye!

Hello!/Hi!

See you tomorrow.

How are you?

See you.

Bye – bye.

Tanishish

Tabriklar va istaklar

I am ....

Happy birthday to you!

What is your name?

Happy New Year!

Minnatdorchilik bildirish va kechirim so'rash iboralari.

Thank you!

You are welcome!

Thanks a lot/

Yes, please.

Thank you very much.

I am sorry. It's a pity.

#### Muloqot iborałarı

(Ular quyidagi jadvalda ko'rsatildi)

#### JADVAL 1

Rozilik berish

– Open the window! – OK! With pleasure. – Give me a box! – Here you are!

Gumon

– Is he a good boy? – I don't know him.

Rad etish

– Open the window. – I don't do it.

Savol

----- qarama-qarshi gap

-----

– Take the pen and put it in the bag. – What is the pen?

Rozilik bermaslik

– Open the window. – No, it's cold.

– Have you a pencil. – Yes, I have, but I can not give you.

– Let's go to the park. – No, let's play here.

Mumkin emas

– I want to have this toy.

– Don't take this toy!

So'ralgan

informatsiyaga ma'lumot berish.

– Do you like Bobur or Dilbar?

a nice girl. – I like Dilbar. She is

Qarshi savol

-Are you a fox? -What about you?

Ma'lumot-ma'lumot

– I am a bear. – I am a dog.

Iltimos takrorlash va tushuntirish

– Give me a pen! – What colour's the pen?

Ruxsat berish

May I take this toy? – Yes, you may.

Buyruq!

Give the ball to Anvar!

Savol-javob

Is it a dog? – No, it is not.

Gapirishning yana bir shakli – bu monolog. Biz monolog deganda bolalarning o‘zлari mustaqil ravishda so‘zlashishlarini tushunamiz. U 2-3 gapdan iborat bo‘lishi mumkin. Bu bolalarning monologik nutqi qandaydir mavzu bo‘yicha oldin eshitgan so‘z va iboralardan bo‘lib, ular oldindan yod olingen bo‘ladi.

Monolog nutq dialog nutqqa qaraganda ancha murakkab bo‘lib, bu bitta odam tomonidan amalga oshiriladigan nutqdir. Monolog nutqda bitta kishi gapiradi, qolganlar esa tinglaydilar. Monolog nutq ko‘p-chilikka qarata aytilgan nutq bo‘lgani uchun, u har doim mantiqiy

jihatdan izchil, grammatick jihatdan hammaga tushunarli va ravon bo'lishi kerak.

Monolog nutq yaxshi xotirani, nutqning shakl va mazmuniga qarab diqqatni yo'naltirishni talab qiladi. Shuning bilan bir vaqtida monolog nutq tafakkurga tayanadi. Monolog nutq tinglovchilarga tushunarli bo'lishi uchun yoyiq gaplardan, aniq lug'atdan foydalanish kerak.

Hikoya qila olish qobiliyati kishilarning muloqotda bo'lishi jarayonida katta rol o'ynaydi. Bola uchun esa bu qobiliyat bilish vositasi, o'z bilimlarini, tasavvurlarini tekshirish vositasi hisoblanadi.

Bolalarda monolog nutqni shakllantirish ularda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liqidir. Bundan tashqari, bola nutqi monolog nutqqa aylanishi uchun u tilning lug'atini va grammatick tomonini erkin egallagan bo'lishi kerak.

Ingliz tilini o'rgatish metodikasida monolog va dialog nutq uzviy bog'langan holda o'rgatiladi.

Bog'cha bolalarining og'zaki nutqini shakllantirish uchun mikrodialog va mikromonologlarni ishlatalishimiz mumkin. Mikrodialog – bu 2-3 iboralardan iborat bo'ladi, mikromonolog esa 2-3 gapdan iborat bo'ladi.

Bog'cha bolalarining og'zaki nutq malakalarini shakllantirish uch bosqichda kechadi.

1- bosqich. O'qituvchi jih'ozlar asosida bolalar bilan mikrodialog olib boradi (oldindan o'tilgan leksika va grammatica materialidan foydalanishadi).

It is a doll.

What is it? – It is a doll

What's her name? – Her name is Narghiza.

Is it a doll? – Yes, it is.

2- bosqich. Bunda bolalar narsalarni imitatсиya qilish orqali (esga tushurish) mikrodialog-namuna tuzishlari mumkin, unda o'qituvchi o'zi yordam beradi (o'yinchoqlar va imo - ishora bilan).

3- bosqich. (qurish – yasash). O'qituvchi boshqa o'yinchoqni (a fox) oladi va savol beradi.

What is it?

It is a wolf.

So'ng bolalarga o'zлari savol berishni so'raydi.

Is it your toy?

No, it is your toy. My toy is in the box.

Bolalar o'qituvchining ketidan takrorlaydilar va shunga o'xshash gaplarni o'qituvchi yordamida tuzadilar. O'qituvchi keyingi savolni beradi.

Are they friends?

I don't know.(O'qituvchi o'zi javob beradi, ikkilanib. So'ng keyingi savolni beradi.)

Do you like to play with your fox?

Yes, of course! O'qituvchi berilgan savolga javobni ma'qullaydi. O'yin tarzida nutqiy namunalarni o'zlashtirish.

Bolalar, biznikiga meh'monga qo'g'irchoq keldi. Dilbar, uning o'rtoqlari ko'p. Keling, u bilan suh'batlashamiz va undan o'rtoqlari haqida so'raymiz.

Good morning, children! – Good morning!

My name is Dilbar. What about you?

My name is ...

O'qituvchining stoli ustida o'yinchoqlar (hayvonlar) bor. U yoniga qo'g'irchoqni qo'yib, aytadi: I have many friends. What is it? Bolalar javob beradilar.

– Ask them what their names are? Bolalar, o'qituvchi ko'rsata-yotgan hayvonlarning ismlarini so'raydilar. So'ng qo'g'irchoq bolalar-dan so'raydi.

– Who are your friends?

– My friend is Botir...

– Is your friend Temur too? – No, he is not my friend.

– Is Bobur a good boy? – Yes, of course!

O'qituvchi jim bo'ladi va bola qo'shimcha qiladi. I like Bobur. Bolalarga tanish bo'lgan boshqa savol-javob turlarini ishlatish mumkin.

Bog'cha bolalarining dialog nutq malakalarini shakllantirishda topshiriqlar va jihozlar nafaqat o'zlashtirishga o'rgatadi, balki uni anglab o'rganishga ham yordam berishi kerak. Bunda dialogik mashqlar bajarish leksik-grammatik mashqlarni shakllantirishda katta rol o'ynaydi, hamda muomala qilish va oddiy til xususiyatlarini va dialogik nutqni o'zlashtirish imkonini beradi.

Kommunikativ maqsadga muvofiq dialoglar bir necha xil bo'lishi mumkin.

– oddiy savol - javob – Is it a cat? – Yes, it is.

– tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi savol va javob;

– hajmi, shakli haqidagi savol va javob;

Dialog savoldan emas, tasdiqlashdan boshlanadi:

— You have a nice dress. — Yes, I have ....

Biron bir harakat qilish uchun fikr almashib, biror narsaning sababi haqida suhbatlashish. Masalan: I want to play. Let's play! Bu tarzda ko'proq o'yin o'ynash kerak, shunda bola aktiv qatnashadi. Masalan, o'qituvchi o'yinchoqli uyni ko'rsatib, dialogga tovush beradi. — Who lives in this house? — The dog does. Boshqa javob. The dog lives in this house. — Does the cat live in this house? — No, it doesn't live in it.

So'ng o'qituvchi boshqa o'yinchoqni ko'rsatadi va shunday tarzda dialog tuzishni so'raydi. Keyin «Teremok» ertagini sahnalashtirish mumkin. O'qituvchi bolalarga rollarni taqsimlaydi: You are a bear. You are the dog. You are a fox. Bolalar ertakni sahnalashtirishadilar «qurbaqa» uyda, u aytadi : I am a frog. The frog is in the house.

Uyni yoniga tulki keladi va so'zlaydi: Who lives in the house? Ertakni ko'rib o'tirgan bolalar aytadilar: The frog does. Qurbaqa javob beradi: The frog lives in the house. Tulki: May I live with you?—You may, I want to have a friend.

Berilgan hamma namunalarda o'qituvchi bolalarning til materialarini egallaganligiga katta e'tibor berish kerak. Bunda o'qituvchi ko'proq ko'rgazmali materiallar ishlatishi kerak.

Bog'cha bolalariga ingliz tili o'rgatishda notanish nutqni ham ishlatish mumkin. Masalan: O'qituvchi olmani ko'rsatib, bu nima, u qanaqa rangda, deyishi mumkin. So'ng boshqa narsalarni ko'rsatib, savol beradi. Shunda bolalardan kim javob bera olsa va savollar tuza olsa o'sha shu olmani oladi.

What is it? — It is a car.

What colour is it? — It is red.

Is it your car? — No, it is not.

Whose car is it? — It is my car.

Dialog nutqni nutqiy namunalar asosida o'rgatish mumkin. Bir necha xil predmetlarni olib, ularning o'rmini o'zgartirib mikrodialog tuzish mumkin. ( There is a fox on the table.)

3-JADVAL

Konstruktsiya

Predmetlar tasviri

Joylar tasviri

There is/are

A bear, a fox, a rabbit.

on, in, under the table, house,box

Obyekt

Konstruktsiya

Predmetlar ta'sviri

The boy/girl/Anvar/I like(s) ice-cream/a cat/a ball my brother want(s)

Shuni e'tiborga olish kerakki, o'qituvchi nutqiy namunalarni o'rgatayotganda ko'rsatilgan, bilgan so'zlarni ishlatishi kerak.

Boshqa variant ham ishlatish mumkin. Masalan, boladan kerakli so'zni olib, uni rasmlar bilan solishtirishni, boshqa holda esa ona tilidagi so'z va iboraga solishtirishni so'raydi. Bunda bolalar ma'nosini anglamasdan takrorlaydilar : There is a fox on the table ( a bear, a frog)

– What colour is the fox? – It is red.

– Is there a brown fox on the table? – No, there is not. It is not on the table .

– Where is a brown fox? – It is on the shelf.

– And what about a brown bear? ...

Shu tarzdagi o'rin almashish mashqlari bolalarda dialog nutq malakalarini shakilanishida yordam beradi. Unda bolalarning fikri shaklga, ma'noga o'giriladi. Oddiy nutqiy namuna tarkibi almashtirilishi mumkin.

– Give the ball to Feruza ( a doll, a bear, a frog).

– Take the bear ( frog, doll).

Bolalarga dialog nutqni o'rgatishda mana bunday mashqlar ham foyda beradi: Do you want to have a toy? – Yes, I do. Bundan keyin o'qituvchi bolalarga buyruq beradi: Ahmad! Give a bear to Holida! Botir, take this doll and give it to Askar. So'ng savol- javob bajarishga buyruq beradi – Is it your fox? – Yes, it is. – Give the fox to Samad, please.

Birinchi bosqichda bolalar faqat o'qituvchi bilan muloqot qiladilar, lekin bolalarga bir-birlari bilan ingliz tilida muloqot qilishni o'rgatish kerak. Shuning uchun ularni dialog tuzishga undash kerak, o'qituvchi biror kimsaga bir nimani ma'lum qilishga o'rgatmog'i lozim.

Bolalarga dialog nutq bilan birga monolog nutq o'rgatilar ekan, unda ko'proq «pastki yo'l bilan» usulini qo'llash tavsiya etiladi.

Bolalarga o'yinli topshiriqlar beriladi. Masalan, Bolalar, biznikiga ayiqcha mehmonga keldi. U qanaqaligini, u haqida gapirganlarni yaxshi ko'radi va boshqalar haqida hikoya eshitishni yoqtiradi. Kim u haqida gapirib beradi? Siz o'zingiz haqida gapirib berishingiz mumkin. Kimni hikoyasi yaxshi bo'lsa, u o'sha bilan o'ynaydi. Shu tarzda

bolalarga yordamchi ramzlar, imo-ishoralar, belgilar ishlatish taklif qilinadi. Qancha ko‘p shunday yordamchi shakllar berilsa, shuncha ular notanish monolog nutqni ifodalay oladilar. Masalan, bolalar tez aytishlar, she’rlar o‘rganadilar. Ularni eslab qolgandan so‘ng, o‘qituvchi rasmlarni bolalarga ko‘rsatadi. Shu rasmlar asosida bolalar she’rlarni aytishadi. Lekin oldin bolalar turli ramzlar ishlatib asosiy iboralarni aytishlari kerak. So‘ng bu iboralarni kengaytirishga buyruq beriladi. O‘qituvchi ramz sifatida rasm beradi. Unda bir o‘g‘il bola bilan yo‘lbars tasvirlangan.— I am a boy. O‘qituvchi bolani silaydi. — I am a good boy. — I am a tiger. O‘qituvchi boshqa ramzni ko‘rsatadi, unda yo‘lbars jahli chiqqan. — I am an angry tiger.

Bu bosqichda ko‘proq xor bo‘lib, keyin esa yakka tartibda, (agar bolalar talaffuz paytida xatolar qilsalar) takrorlash usuli qo‘llaniladi. Bu ishni tugata turib, o‘qituvchi oldin o‘tilgan nutqiy namunalarni takrorlashi lozim, ya’ni o‘qituvchi turli rasmlarni — ramzlarni ko‘rsatib o’sha nutqiy namunalarni takrorlatadi.

## MONSTER

The monster has a big head. It has a little mouth, a small nose and three eyes. The eye in the middle is much bigger than the others. It has a long neck that is a bit fat. The right arm is longer than the left one. The right hand has three fingers and the left one has six. The monster has five legs. The outer legs, both right and left are thick.... .The one in the middle is very thin and the other two are normal size. Its short tail is furry at the end.

Oldin Total physical response olib boriladi, qandaydir ish-harakatini bajarish uchun buyruqlar va iltimoslar ishlatiladi. Shundan keyin bolalar matnni eshitishlari kerak, so‘ng unga savollar qo‘yiladi, bunda o‘qituvchi jihozlar ishlatadi. O‘qituvchi «Monstr» o‘yinchog‘ini ko‘rsatib savollar beradi: What is the monster? How many eyes/legs has it? Has the right hand five fingers? Is it small or tall?, etc.

Matn ustida ishlash bosqichining maqsadi — bu matnni qay darajada tushunganligini tekshirish va keyingi bosqichga o‘tishdan oldin uni mustahkamlash. Matn mazmunini tushunib, bolalar «monstr-drakon» o‘yinchog‘ini ta’riflaydilar va uning uyini, joyini tasvirlaydilar.

Monolog nutq malakalarini shakllantirishda matn ustida ishlashda boshqa variantni ham qo‘llash mumkin. O‘qituvchi o‘zi haqida gapirib beradi va o‘zini ta’riflaydi, bunda sekin gapiradi va intonatsiyaga

e'tibor beradi. So'ng bolalarga o'zлari haqida gapishtirni topshiriq qilib beradi. Keyin tana a'zolarini ko'rsatishga va savollar tuzishga buyruq beradi. Keyingi bosqich – bunda bolalar do'stilarini ta'riflaydilar va o'qituvchi bolalar tarafidan aytilmagan gaplarga savollar beradi. Nihoyasida o'qituvchi do'sti o'tirgan xonani tasvirlashga oid topshiriq beradi.

Shu erda berilgan topshiriqlar bolalar qay darajada til va nutqiy materiallarni o'zlashtirganliklari va qay darajada narsalarni ta'riflashlarini, o'zлari haqida gapirib berishlarini, xonani va joylarni tasvirlashlari juda muhimdir.

Bog'cha bolalarida monolog nutq malakalari ashula, she'r va tez aytishlar yod olishganda ham rivojlantiriladi. Bolalar joni dili bilan ashula va she'rлarni yod olishadi. Bu she'r, ashulalar, yangi so'z va iboralar bolalarni esida juda tez qoladi. Biz ashula va she'rлarni til materialini mashq qilish turiga kiritamiz. Bular yangi leksik materiallarni eslab qolishda va ularni talaffuz qilishda katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari ashula va she'rлar grammatic hodisalarini eslab qolishga yordam beradi. Ko'pincha bu ashula va she'rлarda atoqli otlar, geografik nomlar, davlatlar nomi va boshqa narsalar uchraydi, ular tilni o'rganishda yordam beradilar. Shunday qilib ashula, she'rлarni o'rganish va aytish nutqiy muloqotni bir turi hisoblanadi va til materialini puxta o'rganishda munosib o'rн tutadi.

Ingliz tili mashg'ulotlarida ashula, she'r va tez aytishlarni o'rganish quyidagi maqsadlarni hal qilishga qaratiladi.

1. Mashg'ulot boshidagi fonetik mashqlarni o'tkazish uchun.
2. Til materialini mustahkamlash uchun.
3. Mashg'ulotning o'rta va yakuniy qismida, bolalar charchab qolgan paytda, ularning ish faoliyatini oshirish uchun.

Ingliz tili mashg'ulotlarida ashula o'rganishga alohida etibor beriladi. Yangi ashulani yod olishdan oldin bolalar qiyin so'z va iboralarini to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishlari kerak, uni mustahkamlagandan so'ng, ashula matnini o'rganishga kirishiladi.

Tanlangan ashulalarni magnitofonga yozish tavsiya etiladi, chunki ko'p o'qituvchilar musiqa ta'limga ega bo'lmagan bo'lishlari mumkin. Bu holda ashulani magnitofonni qo'yib o'rganish mumkin.

## I.7. Bog'cha bolalarida ingliz tiliga qiziqishni uyg'otish

Bolalarning o'zga til sifatida ingliz tilini o'zlashtirib olishlari nafaqat ob'yektiv shart-sharoitlarga, balki sub'yektiv shart-sharoitlarga ham bog'liqdir. Bolalarning ichida tilning o'ziga nisbatan shaxs sifatida yondashuv, to'g'rirog'i unga bo'lgan bilish istagi muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Agar ta'lif olayotgan bolalarning o'zlarini ushbu jarayonga nisbatan kuchli xohishga ega bo'lmasalar, ta'lim jarayoni qanchalik samarali metodlar va usullar bilan olib borilayotganiga qaramasdan kutilgan natijalarga erishish muvaffaqiyatsiz kechadi.

Hissiyot omili fikrlash jarayoniga taalluqlidir, u axborot ishlab chiqish jarayonlarini nazorat qilish va tartibga solish uchun zarurdir. Insonning fikrlashi o'zining alohida motivlari va ehtiyojlariga ega.

Aqliy hissiyotlar inson ruhiyatidagi fikrlash va hissiyot sohalarining amalda bir-biriga qo'shilib ketganligini yorqin ifodasidir. Bunga hissisiyotga qiziquvchanlik, haqiqatni yaxshi ko'rish, kutish, shubhalanish, hayron qolish, zavqlanish, dono fikrga lol bo'lish, sekin fikrlashdan hafsalasi pir bo'lish, tushunmaslik azobi va hokazolar kiradi.

Ingliz tili bilimlarini to'liq o'zlashtirishlari uchun ular nafaqat tushunarli bo'lishi, balki o'quvchilar tomonidan his qilinishi ham lozim.

O'qituvchi bilan bolalar o'rtasida katta oraliq masofa mavjud bo'lgan holatlarda o'qituvchi imkon darajasida vositalar yordamida bu masofani qisqartirishga harakat qilishi, har bir bolaning oldiga borishi va ular bilan tushunarli tilda so'zlashishi lozim.

Ta'lim jarayonida bolalar bilan jonli va uzviy muloqot juda zarurdir. U nafaqat dars vositalari yordamida, iliq nazar, yoqimli tabassum, jalb qiluvchi talaffuz yordamida ham amalga oshirishi lozim, dars jarayonida zo'rma-zo'rakilik holatlarining oldini olishga intilish zarur. O'qituvchi bolalarni chuqrur hurmat qilmas ekan, o'rtadagi sun'iylikni olib tashlamas ekan, bolalar faqat bu mashg'ulotning tezroq tugashini orzu qilib o'tiradilar.

Bolalarni hayajonlanishiga, hayron qolishiga va hayratlanishiga majbur qilgan bilimlar eng mustahkam bilimlar hisoblanadi, binobarin o'qituvchi mashg'ulotlarda shunday vaziyat yaratishi kerakki, toki bola, birinchidan, zarur materiallarni ingliz tilida gapirib berishga

majbur bo'lsin va, ikkinchidan, u bu narsani xohish-istak bilan va o'z tashabbusiga ko'ra qilsin.

Bolalar ayni bir iborani takrorlagan holda o'qituvchidan o'yinchoqni so'rayversalar, bu ular uchun zerikarli bo'ladi. Biroq o'qituvchi bolalarga bugungi darsga katta o'yinchoq – momiq ayiqcha tashrif buyurganini va o'zi bilan birga turli o'yinchoqlarni sovg'a qilish uchun olib kelganini, lekin u sovg'alarni qaysi bolalarga berishini bila olmayotganini, shuning uchun kimki ayiqpolvondan sovg'a olishni istasa uning oldiga kelishi va undan o'yinchoqni so'rashi lozimligini tushuntirsa, har bir bola ingliz tilida aytishni xohlab qoladi.

Ingliz tili o'qitish amaliyotida har doim qo'shiqlardan, topish-moqlardan, kichik she'rlar, badiiy asarlarni sahnalaشتirishdan, lisoniy va nutqiy o'yinlardan yetarli darajada foydalanish lozim.

O'qituvchining umumiy madaniyati, uning o'quv materialini bolalar ongiga qiziqarli tarzda etkaza olish mahorati, darsning yaxshi tashkil etilganligi va o'quv jarayoniga nisbatan ijobiy munosabati, so'zning ifoda imkoniyatlariga egalik – bolalarda ingliz tilini o'rganishga qiziqish uyg'otishda katta ta'sir ko'rsatadi. Bunda ohang, talaffuzga alohida e'tibor berish zarur, bir xil ohang o'quvchilarning uyqusini keltiradi. Texnika vositalaridan foydalanish o'quv jarayoniga xilmassislik, bayon etilayotgan materialga esa jonlilik va ko'rgazmalilik baxsh etadi.

## I.8. Bog'cha bolalariga ingliz tilini o'rgatish texnologiyasi

Bog'cha bolalariga ingliz tilini o'rgatishda o'qituvchi suhbat, bolalar bilan so'zlashish, topshiriq va vazifalar berish, tarbiyachi so'zlarini yod olish, sayohatlar, jismoniy mashqlar, o'qituvchining o'yinchoq, suratlar haqidagi hikoyasi, stol qo'g'irchoq teatrini namoyish etish, ertak va she'rlarni sahnalaشتirish, o'yinlar kabilardan foydalanish tavsiya etiladi.

## SUHBAT

Suhbat – bu ingliz tilini o'qitishning dastlabki bosqichida eng qulay va keng tarqalgan ish turidir. Bu jarayonda bolalar yangi so'zlarning grammatik shaklini o'rganib oladilar, o'tgan mashg'ulot materialini takrorlaydilar, ularda inglizcha muloqot qilish malakalari shakllanadi.

MTMda ingliz tili mashg'ulotlarida asosan hosil qiluvchi va umumlashtiruvchi suhbatlardan foydalanish tavsiya etiladi. Suhbatdan bolalar ko'nikma va malakalarni bir tizimga solish uchun foydalanadilar. Suhbat jonli tusga ega bo'lishi va eng yuqori samara berishi uchun bolalarning mustaqil fikrlarini eshitish, ularning suhbat mavzusiga nisbatan shaxsiy munosabatlarini aniqlashga intilish kerak.

Suhbat tabiiy holda va erkin tarzda borishi zarur. Agar mantiqiy va grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa, qisqa javob keng yoyilgan javobdan ko'ra ishonchliroq chiqadi. To'g'ri javob olish uchun savolni to'g'ri tuzish katta ahamiyatga ega. Savollar oddiy, aniq va tushunarli bo'lishi kerak.

## **SHE'R YODLASH**

Bola tovush dunyosi bilan qiziqishni va unga munosabat bildirishni erta boshlaydi, ritmni qabul qilish borasida yorqin ifodalangan sezgini namoyish qiladi. Bolalar she'r tinglash va uni aytib berishni yaxshi ko'radilar. Yaxshi she'r – musiqa. Eng kichik bolalar uning suratini osonlik bilan ilg'ab oladilar, ular qobiliyatlarini bir-biriga mos kelishdan va she'rni chiroyli yozilganidan zavqlanadilar. Ba'zan faqat ulardagi mazmun bilan qisman bog'langan bu musiqa tinglash qobiliyati bolaning badiiy didini, uning tilini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida bolalar tarbiyachi so'zlari orqali kichik she'rler, qo'shiqlar, maqollarni yod oladilar. Bu inglizcha so'zlar, inglizcha nutqdagi so'z birikmalarni va oborotlarni eslab qoladilar qofsiyalangan matnlarni yod olish orqali bolalar so'zlarni, ularning talaffuzini, urg'usini yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bundan tashqari, yod olish tilga bo'lgan qiziqishni oshiradi, bolalarga zavq-shavq bag'ishlaydi, mashg'ulni jonlantiradi. Bola xotirasi tomonidan o'zlashtirilgan har bir so'z uning xotirasini shakllantiruvchi so'z jamg'armasini boyitadi.

Bolalar bilan she'r yodlashga kirishishdan oldin o'qituvchi uning mazmunini yoki mavzusini ona tilida tushuntirib beradi, she'rda so'z boradigan predmetni ko'rsatadi va ushbu buyum bilan she'rda aytilgan harakatlarni bajaradi, keyin she'rni bir necha marta o'qib beradi. She'r o'qib bo'lingandan so'ng, tarbiyachi bolalarga uning mazmuni yuzasidan savollar beradi va bu savollarga she'r qatorlari bilan javob berishni o'rgatadi. Agarda bolalarga bu tarzda javob qaytarish qiyinlik

qilsa bu holda ularga yordam berish kerak. (Masalan, ularni bir necha marotaba takrorlatish).

Har qanday she'rda, qo'shiqda bolalarga notanish bo'lgan so'zlar uchrashi mumkin, agar bolalar bu so'zlarni tushunmasalar she'r yoki qo'shiqning asosiy ma'nosi yo'qoladi. Binobarin, bunday so'zlar va ularda ifodalanadigan buyum yoki narsalar bilan bolalarni oldindan tanishtirib chiqish lozim.

## SAYOHAT

Inglizcha so'zlashuv nutqini o'rgatishda atrofni o'rab turgan muhit katta imkoniyatlar yaratadi. Izchillik bilan amaliy tajriba to'plash va o'z taassurotlari, hisssiyotlarini nutqda aks ettirish uchun bolalarda kuzatish qobiliyatini rivojlantirish zarur. Taassurot so'zdan oldin turishi, so'z esa taassurotning ortidan borishi kerak.

Sayohatlarni bolalar bog'chasining ichida ham, uning tashqarisida ham o'tkazish tavsiya etiladi. Sayohatlarda bolalarda qabul qilish hissi kuchayadi, ular atrofdagilarga nisbatan ko'proq his-hayajon bilan munosabatda bo'ladilar va o'zlarining ko'rganlarini ingliz tilidagi so'zlar bilan ifodalagisi keladi.

Bolalarning ingliz tilidagi nutqlarini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladigan sayohatlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Mazmunning bolalar qiziqishlariga mos kelishi. Mashg'ulot mazmuni va uni o'tkazish vaqtি bolalarning qiziqishlari, ularning rivojlanish darajasi va mashg'ulotlar chog'ida darsni qabul qilishga tayyorligi darajasidan kelib chiqib belgilanishi lozim.

2. Sayohat shunday uyushtirilishi kerakki, bunda har qanday tashqi holatlar bolaning asosiy narsadan e'tiborini jaib qila olmasin. Kuzatish maydoni, bolalar diqqat-e'tiboriga havola qilinayotgan tafsilotlar bolalarning yosh xususiyatlari va ularning o'rganilayotgan tilda o'zlashtirgan ko'nikma va malakalar darajasini hisobga olgan holda belgilanishi lozim.

3. Sayohat darsga, rasmiy ta'lim jarayoniga o'xshab qolmasligi kerak. U jonli va qiziqarli o'tkazilishi kerak. Bolalar nafaqat tomosha qiliishlari, balki harakat qiliishlari, sinab ko'rsatishlari, o'ynashlari va so'zlashishlari darkor.

4. O'qituvchi sayohatni o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'rishi, buning uchun tegishli reja ishlab chiqishi zarur. Shuningdek, bolalar tashrif buyuradigan muassasalar, shaxslar ogohlantirilishi, ularning

ushbu sayohatda ishtirok etish darajasi haqida oldindan kelishib qo'yilishi zarur.

5. Bolalar nutqini rivojlantirish maqsadida sayohatni eng yuqori darajada o'tkazish uchun mustahkamlanishi lozim bo'lgan yoki ilk bor taqdim etiladigan nutqiy material yuzasidan tegishli o'quv qo'llanmasini (materialni) tayyorlash lozim.

6. Qabul qilingan yangiliklarni ichki qayta ishlash vaqt talab etadi, shuning uchun sayohatdan so'ng darhol bolalarning olgan bilimlari va taassurotlarini mustahkamlashni boshlab yubormaslik kerak.

Sayohat qanchalik muvaffaqiyatli o'tkazilgan bo'lsa, u qanchalik bolalarni qiziqtira olgan bo'lsa, ular kelgusida bu olgan taassurotlarga nisbatan shunchalik har xil munosabat bildiradilar, eslaydilar, so'raydilar. Sayohat chog'ida ko'rghan narsalarni o'yinlarda qayta tiklashga harakat qiladilar.

7. Sayohatlar soni pedagogik jihatdan asoslangan bo'lishi va boshqa mashg'ulotlar soniga mos kelishi kerak.

Biron-bir mashg'ulot turi boshqalardan ustunlik qilmasligi kerak. Haddan ziyod uyuştirilgan sayohatlar, ayniqsa nomigagina uyuştirilgan sayohatlar bolalarning joniga tegishi mumkin. Mo'ljallangan sayohatlar rejaga kiritiladi. Yaxshisi ularni muayyan leksik mavzuni o'rgangandan so'ng, taxminan haftasiga, oyiga bir marta bolalarning o'quv materialini o'zlashtirishlarini tekshirib ko'rish sifatida o'tkazgan ma'qul. Sayohat chog'ida qoshiqli o'yinlarni uyuştirish tavsiya etiladi.

## **ERTAKLAR, SHE'RLARNI SAHNALASHTIRISH**

Teatr lashtirilgan tomoshalar bolalarga katta zavq bag'ishlaydi. Tomoshalar – sahna ko'rinishlari bolalarni taassurotlar bilan boyitadi, ularning dunyoqarashini kengaytiradi, fikrlash, tasavvur, xotirani rivojlantiradi, o'rganilayotgan tilda ravon nutqni shakllantirishga yordam beradi. Syujetli o'yinchoqlar bilan sahnalashtirilgan hikoyalar, ertaklar, she'rlar bolalarni xursand qiladi, ularning nutqini faollashtiradi, eshitish, berilgan savollarga javob qaytarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Badiiy asarlar, ertaklar, she'rlarni sahnalashtirish – u o'qituvchi o'qib bergen asarlarni hikoya qilib berishning turli usullaridir. Ertaklar, she'rlarni sahnalashtirish uchun tarkibida dialog nutq bo'lgan asarlardan foydalanish kerak. Ularni qayta hikoya qilib berish inglizcha

so'zlashish nutqini, shu jumladan, murojaat qilish, savol berish, sanash ohangini rivojlantirish va takomillashtirish imkonini beradi, bolalar nutqi his-hayajon jihatdan yanada boyidi va personajlar tushib qolgan vaziyatdan kelib chiqqan holda ba'zan quvnoq, ba'zan ma'yus, ba'zan esa iltimos ohangida jaranglaydi.

Bolalar bog'chalarida inglizcha so'zlashish nutqini o'rgatishda sahnalashtirishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

Murakkab bo'Imagan syujetlarni sahnalashtirish va namoyish etish.  
O'yin sahnalashtirish.

Teatrlashtirilgan tomoshalar.

Qo'g'irchoq teatri.

Bolalarning sahna ko'rinishlarini ta'limning dastlabki bosqichida, ya'ni ularda ingliz tilidagi so'zlar zahirasi hali unchalik katta bo'Imagan paytda qo'llash lozim.

Sahna ko'rinishlarini amalga oshirish metodikasi quyidagicha: namoyish boshlangunga qadar tarbiyachi unda qatnashadigan shaxslarni bolalarga tanishtirib chiqadi, narsalar nomlarini mustahkamlaydi. Tarbiyachi o'yinchoqlarni ko'rsatadi, agar o'yinchoqlar yangi bo'lsa, bolalardan ularni nomlarini so'raydi, tarbiyachi ularning nomini aytadi va bolalardan bir necha marta takrorlashni so'raydi. Bolalarni tomoshaning asosiy qahramonlari bilan tanishtirib bo'lgach, tarbiyachi o'yinchoqlarni stolga terib chiqadi va tomoshani boshlaydi. Bunda bolalar nafaqat tomoshabin, balki ishtirotchi ham bo'lishlari lozim.

## O'YINCHOQLARGA QARAB HIKOYA QILISH

Maktabgacha yoshdagি bolalar hayotida o'yinchoqlar muhim o'rн tutadi. O'yinchoqlarda atrofdagi hayotiy narsalar kichraytirilgan hajmda aks etgan va bu bolaga ulardan o'yin davomida hayotiy vazifalarga qarab foydalanish imkonini beradi. O'yinchoqlar bolalarning inglizcha nutqini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Ular bolalarning ingliz tilidagi bilimlarini mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. Bolalarga inglizcha so'zlashuv nutqini o'rgatishning dastlabki bosqichlaridagi mashg'ulotlarda o'qituvchi nutqi hukmron bo'ladi. U so'zlar bilan sharhlagan holda o'yinchoqlarni ko'rsatadi, ular bilan turli harakatlarni bajaradi. U yoki bu o'yinchoqni personajning so'zları bilan tushuntirib berilayotgan harakatlari bolalarni o'ziga jalb qiladi. O'yinchoqlarni ingliz tilida tavsiflashga

doir mashg'ulotlar hayajonli sharoitda, oddiy didaktik o'yinlar ko'rinishida o'tadi. Birlamchi bosqichda tavsiflash uchun o'yinchoqlarni tanlash ayrim xususiyatlarga ega, o'yinchoqlar nomlari bir xil bo'lishi, lekin ularning tashqi ko'rinishi, hajmi va ranglari turlicha bo'lishi mumkin.

Bunday tanlov taqqoslash usulini ko'zlagan holda lug'atni faollashtirish va ravon nutqni rivojlantirishni ta'minlaydi.

O'yinchoqlarni tavsiflashga doir mashg'ulotlarni ularni ko'rib chiqishdan boshlash kerak. Tavsiflash o'qituvchi savollari asosida boradi. Savollarga bolalar tomonidan javob berilganidan so'ng o'qituvchi javoblarni umumlashtiradi, ya'ni hikoya tuzadi : This is a doll. It is little. It is nice. It has a red dress.

O'yinchoqlar bilan mashg'ulot o'tkazib bo'lgandan so'ng, o'qituvchi bolalarning nutqiy faoliyatini tashkil etishni tavsija etadi. Chunonchi o'qituvchi o'yinchoqlarni ko'rsatadi va turli harakatlarni bajaradi, so'ngra bolalarga jo'r bo'lib yoki yakka tarzda qo'g'irchoq nima qilganini aytishni taklif etadi.

Bolalarning ingliz tilidagi lug'atini boyitishni va faollashuvini ta'minlaydigan sahna ko'rinishlari juda qiziqarli bo'ladi.

O'qituvchi dastlab bolalarga o'yinchoqlarni ko'rsatadi va ularning nomlarini aytadi, bu o'yinchoqlarning barcha atributlaridan keyinchalik bolalarga notanish so'zlarni ko'rsatish va ma'nosini tushuntirishda foydalaniadi.

Bolalarnig eng sevimli va qiziqarli mashg'ulotlaridan biri bu o'yinchoqlarni ko'rib chiqish va tasvirlashdir. O'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishning ahamiyati cheksizdir. U bolalarda axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi, birgalikda hikoya qilish malakalarini rivojlantiradi, idroklarini mustahkamlaydi. Kam gapiradigan (introvert) bolalarning nutqiy muloqotga kirishib ketishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning hayotlarini sermazmun va quvnoq qiladi, lug'atni faollashtiradi, bog'lanishli nutqning rivojlanishiga yordam beradi.

## SURATLAR ASOSIDA HIKOYA QILISH

Suratlar bilan mashg'ulotlar o'tkazish nutqni rivojlantirish metodikasida etakchi o'rin tutadi. Suratlarni yorqinligi, chiroyliligi ijobjiy hissiyotlarni tug'diradi, bolalarda surat ta'sirida yuzaga kelgan o'z kechinmalarini, his-tuyg'ularini so'z bilan ifodalash istagi paydo bo'ladi. Tilni o'rganishda yengil va puxta eslab qolish hamda nutqiy

faollik suratlarni bolalarga begona tilni o'rgatishda almashtirib bo'lmaydigan vositaga aylanadi.

Bolalarga inglizcha so'zlashuv nutqini o'rgatish maqsadida surat tanlashda qat'iy izchillikka rioya qilish lozim, ya'ni oddiy syujetlardan nisbatan qiyin va murakkab syujetlarga o'tiladi. Surat ta'sirida yuzaga kelgan o'z kechinmalarini, his-tuyg'ularini so'z bilan ifodalash istagi paydo bo'ladi. Surat o'z mazmuniga ko'ra bolalar yoshiga va ularning rivojlanish darajasiga, shuningdek o'rganilayotgan tildagi so'z zahirasiga mos kelishi lozim. Ko'rib chiqilayotgan suratlar bolalarda estetik hislarni rivojlantirishga ko'maklashishi zarur.

Suratlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar leksik minimumni mustahkamlash va faotlashtirishga yordam beradi, ingliz tilining grammatik tuzilishini, o'z fikrini ravon bayon qilishni shakllantiradi. O'qituvchi ingliz tili mashg'ulotlari uchun suratlarni to'g'ri tanlash haqida qayg'urishi darkor. Ushbu maqsadda suratlarning predmetli va syujetli turlaridan foydalilanadi.

Doskada osib qo'yilgan mo'ljallangan suratlardan tashqari mavzular bo'yicha tasvirlangan suratlar turkumi ham bo'lishi lozim. Kichik suratlarni toifalariga qarab taqsimlash lozim.

Bolalar o'z qiziqishlari va xohishlaridan kelib chiqib, suratlarni yakka holda ko'rishni yoqtiradilar. Shuning uchun suratlarni ulardan bolalar erkin foydalanishlari uchun ham tayyorlash kerak. Suratlardan foydalangan holda o'tkaziladigan mashg'ulotlar bolalarni buyumlarning nomlari, sifatlari, harakatlari va belgilari bilan tanishtirishga yordam beradi.

Suratlar loto va juftlik o'yinlarida ham aks ettilrilishi mumkin. Bunday o'yinlar bolalarni narsalar dunyosida yo'l topishga yordam beradi, buyumlarni ularning maqsadi va belgilari qarab tavsiflanishi bilan tanishtiriladi. Ular diqqat-e'tiborni, mulohazani va eng asosiysi, bolalarning o'rganilayotgan tildagi nutqini rivojlantiradi.

Bolalarga ingliz tilini o'qitish alohida narsalar nomlari, harakatlar, sifatlarni belgilashdan oldin bir necha so'zlardan iborat bo'lgan kichik gaplarni tuzish, keyinchalik esa bir necha gaplardan iborat mazmunan bog'liq hikoyalar tuzishga qarab ketishi zarur.

Bolalar o'zlariga qaratilgan tushunarli inglizcha nutqni qanchalik ko'p eshitsa, ularning o'rganilayotgan tildagi o'z nutqlari shunchalik tez va uyushgan holda rivojlanadi. Suratlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar ushbu maqsadga erishishga yordam beradi. Misol sifatida bolalarga inglizcha ravon nutqni o'rgatishni keltiramiz:

Jihozlar. O‘yinchoqlar – ayiqcha, turli rangdagi o‘yinchoqlar tasvirlangan suratlar.

Metodik usullar. What is absent? So‘z o‘yini, gap tuzishga doir mashqlar.

Mashg‘ulotning borishi.

1. Bolalar yarim doira shaklida o‘tkazilgan. Markazda stol, unda ayiqcha o‘tiribdi. Tarbiyachi bolalarga uni ko‘rishni va ayiqchada qanday o‘yinchoqlar borligini aytishni taklif qiladi. Tarbiyachi o‘yinchoqlarni stolga qo‘yadi, bolalar esa ularning nomlarini aytishadi. Tarbiyachi barcha o‘yinchoqlarni yig‘ishtirib qo‘yadi, keyin bittadan o‘yinchoqni stolga qo‘yadi va yakka tartibda so‘ray boshlaydi: What kind of toys has a bear? Tarbiyachi javob namunasini beradi: A bear has a car. Tarbiyachi bolalarga What is absent? o‘yinini taklif qiladi.

O‘yin maqsadi – bolalarga o‘z nutqida so‘zlarni tegishli grammatic shaklida qo‘llashni o‘rgatish.

Tarbiyachi o‘yin qoidalarini ona tilida tushuntirib beradi.O‘yin tavsifi.

1. Tarbiyachi ishorasi bilan (qarsak chalib) bolalar ko‘zlarini yumadilar yoki orqaga o‘giriladilar, tarbiyachi esa bu paytda qaysidir o‘yinchoqni olib qo‘yadi. Bolalarga ayiqcha qaysi o‘yinchoqning yo‘qligini aytishi kerak. Tarbiyachi javob namunasini beradi : A bear hasn’t a drum. To‘g‘ri javob uchun bola sovg‘a qog‘oz ( fant ) oladi. O‘yindan so‘ng barcha qog‘ozlar sanaladi, kimda shunday qog‘oz ko‘p bo‘lsa, u g‘olib hisoblanadi.

2. Tarbiyachi turli rangdagi o‘yinchoqlar tasvirlangan suratlarni yuz tomonini pastga qilib stolga terib chiqadi.

Tarbiyachi suratlardan birini oladi, uni bolalarga, ayiqchaga ko‘rsatadi va deydi: This is a red car. So‘ngra bolalarga navbat bilan yaqin kelib, surat olishni va ayiqchaga uning qanday o‘yinchoqligini, u qaysi rangdaligini aytishni taklif qiladi. Agarda bola faqat o‘yinchoq nomini aytса, unga ayiqcha bu o‘yinchoqning qaysi rangdaligini ham bilishni xohlayotganligini eslatish lozim.

Tarbiyachi bolalarga o‘yinchoq haqida she‘r aytib berishni taklif qiladi.

Shunday qilib suratlar bilan o‘tkazilgan mashg‘ulotlar orqali leksik minimumni mustahkamlash va faollashtirish, grammatic hodisalarini to‘g‘ri qo‘llash va o‘z fikrlarini ingliz tilida ravon ifodalashga erishiladi.

---

## **II QISM** **AMALIY O'QUV MATERIALLARI**

Bu bo'limda MTM katta va tayyorlov guruh bolalariga ingliz tilini o'rgatishda metodik ko'rsatmalar berganmiz. Bu metodik ko'rsatmalar o'qituvchi va talabalarga o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari biz MTM 5-6 yoshli bolalarning og'zaki ingliz tili nutq malaka va ko'nikmalarini shakllantirish uchun ham ishlardan lavhalar berganmiz. Shularga tayangan holda o'qituvchi o'zi mustaqil dars ishlanmasini berilgan mavzular bo'yicha yozishi mumkin. Berilgan ashula, she'r, dialog, matn va tez aytishlarni mashg'ulotlarda ishlatish mumkin.

### **II.1. MTM katta va tayyorlov guruh bolalariga ingliz tilini o'rgatish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar**

O'quv materiali 136 dars-mashg'ulotga mo'ljallangan bo'lib, birinchi yil katta guruhlarda 68 dars, ikkinchi yil – 68 darsni tashkil qiladi.

MTM bolalariga ingliz tilini o'rgatish maqsadi ingliz tilida og'zaki nutq malakalarini hosil qilish (nutqni tinglab tushunish, dialog va monolog nutqda gaplasha olish).

Shu maqsaddan kelib chiqqan holda , ingliz tilini birinchi yil o'rgatishda asosan dialog nutq malakalariga, ikkinchi yil esa monolog nutq malakalarini shakllantirishga ham etibor qaratiladi.

N

1-st year themes

Number

N

2-nd year themes

Number

1.

Acquaintance

(1-3) 3 lessons

1.  
Autumn  
(1-4) 4 lessons
  
2.  
Toys  
(4-9) 6 lessons
  
2.  
Clothes  
(5-11) 7 lessons
  
3.  
Colour  
(10-12) 3 lessons
  
3.  
My Weekend  
(12-18) 7 lessons
  
4.  
Animals and Birds  
(13-19) 7 lessons
  
4.  
My friend  
(19-20) 4 lessons
  
5.  
Account  
(20-21) 2 lessons
  
5.  
Winter  
(23-26) 4 lessons
  
6.  
Parts of the body  
(22-28) 7 lessons
  
6.  
Transport  
(27-33) 7 lessons

7.  
My family  
(29-34) 6 lessons
7.  
New Year  
(34-36) 3 lessons
8.  
My parents  
(35-40) 6 lessons
8.  
My kindergarten  
(37-42) 6 lessons
9.  
My room  
(41-48) 8 lessons
9.  
Spring  
(43-46) 4 lessons
10.  
Fruits and vegetables  
(49-54) 6 lessons
10.  
8 March  
(47-48) 2 lessons
11.  
Meals  
(55-61) 7 lessons
11.  
Navruz  
(49-50) 2 lessons
12.  
Dishes  
(62-68) 7 lessons
12. 13. 14.

Our city              Summer              Welcome to school  
(51-57) 7 lessons (58-61) 4 lessons (62-68) 7 lessons

## INGLIZ TILI O'RGATISHNING BIRINCHI YILI

Birinchi yil o'rgatishning maqsadi: bolalarni narsalarni, odamlarni, hayvonlarni, sabzavot va mevalarni, ovqatlarni, idish-tovoqlarni va ular bilan bog'liq harakatlarga o'rgatish, hamda o'yin tarzida ularning hajmi va xususiyatlarini gapirib berishga undash.

Kommunikativ maqsadlar. Ma'lumot berish...,

Nutqiylar ko'nikmalar:

- Salomlashish, tanishish va xayrashishni bilish.
- O'zi va oilasi haqida gapirib berish.
- Inson, hayvon harakatlari aytib berish.
- Narsalar, inson va hayvonlarning joylarini tasvirlab berish.
- Hayvon, narsa, sabzavot va mevalarni, ovqatlarni (ularning nomini, shaklini, rangini, sonini, hayvonlar nima qila olishini, bolalar nimalarni yaxshi ko'rishini) aytish.
- Kim yoki nima bu, necha yoshda, u qanaqa, unda nima yoki kim bor va h.k.z.
- Buyruq gaplarga javob berish, harakatlarni ko'rsatish.
- Ashula va she'rlar bilish.

### 1. Theme: «Acquaintance» (1-3 lessons)

Vazifa: Salomlashish va xayrashishni bilish, o'zgalar ismini so'rash, o'zini tanishtirish, o'zining va boshqalarning kimligini aytish, ularning necha yoshdaligini so'rash va h.k.z.

Vocabulary. Stand up, sit down, a boy, a girl, fine, Uzbek, Russian.

Speech patterns.— Good morning! Hello! Hi! How old are you? What is your name? My name is..., I am Dilbar, He/she is ..., How are you?, I am 5 years old. I am Uzbek, Russian, I am fine, thanks, And you? Good bye, Bye, See you.

Texts

- |                                   |                          |
|-----------------------------------|--------------------------|
| 1. – Hello, Bobur.                | – How are you?           |
| – Hi, Sasha. I'm glad to see you. | – Fine, thanks. And you? |
| – I'm glad to see you too.        | – I am fine.             |
| – Bye.                            | – See you                |
| 2. – Good morning!                | – Good day!              |
| – Good morning!                   | – Good day!              |

- I 'm Alik
- My name is Natasha.
- My name is Karim.

- What is you name?
- My name is Anvar. And you?

## 2. Theme: «Toys »(4-9 lessons)

Vazifa: buyumlarning nomlarini aytish, ular bo'yicha tegishli ma'lumotlarni so'rash va savollarga javob berish hamda bir qancha o'zлari bilgan o'yinchoqlar haqida gapirib berish, buyruq gaplarga xatti-harakat va so'zlar bilan javob berish.

Vocabulary: ball, doll, dog, frog, cat, toy, plane, block, teddy bear, jack in the box, Humpty-Dumpty, Donald Duck, Gnome, Brother Rabbit, Pig Puff, Pluto Dog. To take, to give, to bring, to put, my, your, his, its, good.

Speech patterns: It is...; It is not...; Is it...?; This is...; Is this...? Its name is....; What is its name?; What is it? – It is...; Give me...; Take the...; Here you are...; Thank you; May I take ... I have a doll; These are toys; Here you are; I like/don't like...; Give me a fox; Take the....

Texts:

- |                                 |                                   |
|---------------------------------|-----------------------------------|
| 1. – What is it?                | – It is a toy.                    |
| – Give me your toy.             | – Here you are.                   |
| – Thank you. What is its name?  | – It's Donald Duck.               |
| – Is it a good toy?             | – Yes, of course. Do you like it? |
| – Yes, I think it's a nice toy. |                                   |

## 3. Theme: «Colour» (10-12 lessons)

Vazifa: o'yinchoqlarga nom berish, ular haqida va ularning ranglari qandayligini aytib berish

Vocabulary: brown, green, blue, white, black, yellow, red, grey, orange, see, pencils, crayons, paintbrush, paints.

Speech patterns: What colour is the cat? – It is black. Is it red?- Yes it is/No it is not; I can/can't....

Texts:

- |                               |                              |
|-------------------------------|------------------------------|
| 1. – What is it?              | – It is a pencil.            |
| – What colour is this pencil? | – The pencil is black.       |
| – Have you a red pencil?      | – Yes, I have. Here you are. |
| – Can you draw?               | – Yes, I can draw my toy.    |

2. Blue is the sky.  
Green is the frog.  
White is the dog.  
Black is the cat.  
Yellow is rat,  
Brown is bear,  
They are here.

#### 4. Theme: «Animals and birds» (13-19 lessons)

Vazifa: uy va yovvoyi hayvonlarning fargini, yovvoyi jonivor va parrandalar qanday aytishini bilish, bir nechta o‘zлari bilgan hayvonlarning nomlarini, uylarida mayjud bo‘lgan hayvonlarni, ularga tegishli bo‘lgan ma‘lumotlarni aytib berish.

Vocabulary: a donkey, goat, cow, sheep, camel, horse, rabbit, bear, giraffe, lion, elephant, snake, fox, tiger, kangaroo, crocodile, tortoise, wolf, rat, deer, bird, crow, sparrow, parrot, cock, hen, duck, goose, tail.

To jump, to live, to bark, to bite, to run, to give, strong, to sing, to fly, to catch, a cage.

Speech patterns: What animal is this? – It’s a ... ; Is the tiger big? – Yes/No .... Do you like? – Yes/No...; What can the dog do? – It can jump/back; Who wants to be a monkey? – I want ... I am a., We are birds; It’s time for breakfast. Give grain to your hens.

Texts.

Dialogue

- |                              |                                      |
|------------------------------|--------------------------------------|
| – What animal is this?       | – It’s a bear.                       |
| – Is the tiger angry?        | – Yes it is/No it is not.            |
| – Do you like the fox?       | – Yes, I do/No I don’t.              |
| – What can the crocodile do? | – The crocodile can swim.            |
| – Who wants to be a fox?     | – I do/No I want to be a lion.       |
| – Are you a tiger?           | – Yes, I am/No, I am not. I’m a fox. |

### At the Zoo

This is a Zoo. Many animals are in the Zoo. I see a bear, a giraffe. The giraffe has a long neck. The bear is brown. I have animals at home: a cat, a dog, a cow. The cow gives us milk. I like my cow. The cow says: «Moo!», the horse says: «Heigh!».

Dialogue

- Have you a bird at your home? – Yes I have. It is a parrot.

- Can your bird fly?
- Yes, it can. But, it is in the cage.
- Can it talk?
- Yes, it can. It can say its name.

### **My hens**

I have hens, ducks. It's time for breakfast. I give them grain in the morning. They cannot fly. They are domestic birds.

#### **5. Theme: «Account» (20-21 lessons)**

Vazifa: yovvoyi hayvon va jonivorlarning nomlarini aytish: ularni qandayligini, (1-10 tagacha) katta-kichikligini va ranglarini aytilib berish.

Vocabulary: one, two, three, four, five, six, seven, eight, nine, ten, drum, giant, wand, top, butterfly, insect, sunflower, beetle, colour.

Speech patterns: How many dogs are in the house? –Two dogs; Three cats are in the house; Let's count, Look at.., I see a .. .

Texts:

1. – What is it?  
– Let's count its wings.  
– How many wings has butterfly?  
– Is it a beautiful insect?  
– Look at the spots.  
– It's butterfly.  
– Let's. One, two ...  
– For wings  
– Yes, I like it. It's colour.  
– I see, they are black
2. One, two, three, four  
Mary at the cottage door;  
Five, six, seven, eight  
Eating cherries of a plate.
3. I see five beetles. They are blue, yellow. They can fly.

#### **6. Theme: «Parts of the body» (22-28 lessons)**

Vazifa: tana a'zolaringiz nomlarini, ular haqida, o'g'il va qiz bolalar va jonivorlarning (tana a'zotari va ularning qandayligini) aytib bering, buyruq va iltimos gaplarga javob bering.

Vocabulary: a head, face, hand, nose, hair, body, eyes, ears, neck, finger, mouth, round, oval, square, small, little.

Speech patterns: I have..; My nose is small. It's... It is not small. Is your face round? Yes, it is /No, it is not.

**Texts:**

1. – What is your face?  
– It's round.
- Have you a black hair?  
– No, my hair is red.
- How many fingers have you?  
– Five fingers.
- Show me.  
– No, I don't want to do it.

2. I have a doll. The doll is nice. Its eyes blue and lips are pink.  
Doll's hand and legs are little.

**7. Theme: «My Family» (29-34 lessons)**

Vazifa: oila a'zolarining ismlarini; ularni yoshiari va qandayliklarini, ular bilan qanday qarindoshlik munosabatida ekanligingizni ta'riflab bering.

Vocabulary: mother, father, grandmother, Daddy, grandma, grandfather, grandpa, brother, son, sister, daughter, children, house, garden.

Speech patterns: I have got mother... I haven't got sister; This is my brother/sister... ; Where is your brother? – He is in the garden... ; I am sorry... ; Is her name...? – Yes, her name's ... No, her name's... ; Who is this? – It is my mother. My mother's name is...; I like my parents very much.

**Texts:**

1. – Good morning, Grandpa.  
– Good morning, Jane.  
– How are you?  
– Fine.  
– Where is my Mummy?  
– She is out.
2. – What's your name?  
– My name's Botir.  
– Have you got a sister?  
– Yes, I have.  
– How old is she?  
– She is 5.  
– Is her name Narghiza?  
– No, her name is Gulnara.  
– I am sorry.

3. My name's Dilya. I have mother, father, and a little sister. My mother's name is Nilufar. My father's name is Dilshod. My sister's name is Farida, she is a baby. She is 2 years old. I like them very much.

4. I love mother, father,  
They love me.  
I love sister, brother.  
They love me.  
You see. We are happy family.

### **8. Theme: «My parent's profession» (35-40 lessons)**

Vazifa: ota-onalarining kasblari va ular qanday vazifa bajarishlari; ota-onangizni kasblariga bo'lgan munosabatlaringizni ayтиб bering.

Vocabulary: doctor, teacher, worker, pilot, nurse, father, shopkeeper, cook.

O'qituvchi oldindan maxsus predmetlar va hayvonlarni turli hajmdagi rasmlarini tayyorlab oladi (har bir predmet uch xil hajmda bo'ladi, masalan, uy, kichikroq uy va uchinchisi undanda kichik).

O'qituvchi uchchala suratni ko'rsatib deydi:

It is a house. It is my house. It is a big house. It is Davron's house.  
It is a small house.

Shuning orasida bolalar o'qituvchidan keyin har bir gapni alohida qaytaradilar. Keyin esa o'qituvchi uchta suratni ko'rsatib deydi: birinchi surat - It is a house. Ikkinchchi surat - My house is smaller, (imo-ishora bilan ikkinchi suratdagi uycha birinchisidan kichikroq ekanligiga e'tibor qaratiladi, so'ng uchinchi surat ko'rsatiladi Davron's house is the smallest.

O'qituvchi turli hajmdagi hayvonlar suratini ko'rsatadi. Who has a cat? Uchta bola qo'lini ko'taradi, o'qituvchi bolalar javob berishiga yordam beradi.

Birinchi bola: I have got a cat. My cat is small (kichikroq mushuk surati bor). Ikkinchchi bola: My cat is smaller. Uchinchi bola: My cat is the smallest.

O'qituvchi savollar beradi:

Who has a smallest dog? – I have got the smallest dog.

Is your doll smaller than Sasha's doll? – Yes, it is. No, it is not.

### **Guess What is it?**

Olim: I have something. Guess what is it?

Children: Is it a pencil?

Olim: No, it is not a pencil.

Lola: Is it a pen?

Olim: No, it is not a pen.

Nodir: Is it a doll?

Olim: Yes, it is.

### **Guess What am I?**

Bu o'yinni yana kasblar nomlanishini o'rghanishda bajarish mumkin.

– Are you a teacher?

– No, I am not a teacher.

– Are you a doctor/pilot/dancer/nurse?

– Yes, I am a doctor.

### What can I do?

O'qituvchi predmetni ko'rsatib san modal fe'li ishtirokida savol beradi:

What can I do with book? Bolalar javob beradilar: You can read. You can put on the table.

The sea is playing...

Avval o'yin shartlari tushuntiriladi, masalan, hayvonlar nomlarini bilish. Bolalar doira shaklida turadilar, olib boruvchi: The sea is playing – one. The sea is playing – two. The sea is playing – three deydi. Shundan so'ng bolalar muayyan hayvonlar rolini ijro etadilar, Olib boruvchi qanday hayvon ekanligini topishi kerak. Bunda ular qo'shimcha ma'lumotlar berib turishlari kerak, masalan, I am green. I can swim.

Olib boruvchi, agar topa olmasa, savol orqali bolalarga murojaat qilishi mumkin.

### FUNNY TRAIN

Tovushlar talaffuzini mustahkamlash mashqi harakatli o'yin orqali bajarilishi mumkin.

O'qituvchi har bir bolaning ko'kragiga vagon nomerlarini taqib qo'yadi. Ishtirokchilar tartib sonlarga ko'ra safga turadilar. O'qituvchi boshchiligida poezd «yasab», uning buyrug'i bilan poezd harakatga keladi, har bir harakat tovush bilan ifodalanadi. Har bir tovushga kerakli obraz tanlanadi. Masalan:

poezd yuryapti [t], bekat [o], qo'ng'iroq [w].

### O'yin variantlari:

1. *Vagonlar yo'glamasi*. Ishtirokchilar o'z raqamini ingliz tilida aytadilar.

2. *Bekat bo'ylab yoki tegishli yo'nalish bo'ylab harakat*. Yo'nalish yumshoq o'yinchoqlar orqali bajariladi. Turli bekatlarda ishtirokchilar yumshoq o'yinchoqlarni teradilar va ular haqida ingliz tilida so'zlab beradilar.

O'qituvchi vagonlar raqamini aytib, boshqaradi. Bolalar barcha o'yinchoqlarni yig'ib tovushlarni qator marta qaytargandan so'ng, o'qituvchining buyrug'i bilan o'yinni yakunlash mumkin.

## TINGLAB TUSHUNISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRUVCHI O'YINLAR SHOW ME

Ishtirokchilar doira shaklida turib oladilar. Olib boruvchi o'zining tana a'zolarini ko'rsatib, Show me your hands/head/nose iboralarini talaffuz qiladi. Bolalar birgalikda jo'r bo'lib qaytaradilar.

Olib boruvchi harakatlarni tushuntiradi, ushbu ( hands, head, nose, legs, mouth) tana a'zolari bilan nima qilish mumkin va deydi: Clap! Clap! Clap! – bolalar qarsak chaladilar, Smile! Smile! – bolalar kuladilar. O'yinni tana a'zolari nomlarini aytib qaytarish mumkin.

nose – smell	finger – count
head – nod	arms – swim
leg – jump	lips – kiss

### SAY AND SHOW

Ishtirokchilar o'qituvchining yaqin atrofiga joylashadilar. Har bir ibora yoki so'z birikmasiga o'qituvchi tomondan ifodalangan har bir ibora, so'z birikma qandaydir harakat mos keladi. Masalan, «on», «in», «under» predloglarini to'g'ri ishlatalishini mashq qilish uchun: on - qo'llarini boshga qo'yish orqali, under - o'tirish, in - ko'krakka urish (ya'ni ichida belgisi) orqali ifodalanadi.

Avval o'qituvchi predloglarni o'zi alohida-alohida aytib, so'ng gaplarda va so'z birikmalarida aytadi, va nihoyat, bolalar aytishni o'rganadilar.

### NICK AND ANDY

Bolalar doira shaklida joylashadilar, ulardan biri doira markaziga turib she'r o'qishni boshlaydi, qolgantari esa she'r mazmuniga binoan harakatlar bajarishadi.

Nick and Andy, Sugar and Candy, I say stop!	Nick and Andy, Sugar and Candy, I say stand up!	Nick and Andy, Sugar and Candy, I say hands up! etc...
---	---	--

## **YIL FASLLARI NOMLARINI MASHQ QILISH**

### **Seasons:**

#### **Spring**

Spring, spring, spring!  
The trees are green.  
I Bring you flowers,  
Joy and grass,  
And holiday for us.

#### **Autumn**

Autumn, autumn, autumn!  
The trees are bare,  
There's mist in the garden  
And frost in the air.

#### **Summer**

Summer, summer, summer!  
The sun is shining,  
The flowers are blooming,  
The sky is blue, the rains are few.

#### **Winter**

Winter, winter, winter!  
The snow is falling,  
The ground is white  
All day and night.

### **Hafta kunlarini mashq qilish**

Today's Monday.  
Today's Monday.  
Is everybody happy?  
Yes, of course we are.

Today is Tuesday.  
Today is Tuesday.  
Is everybody happy?  
Yes, of course we are.

### **Talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlar ustida ishlash rifmovkalari**

#### [I:] tovushi uchun

I have two eyes,  
And I can see  
Pencils three  
In front of me.

I see the walls  
And the door;  
I see the blackboard  
And the floor.

#### [ð] tovushi uchun

Father, mother, sister, brother,  
Hand in hand with one another.

#### **All about me**

#### [t], [l] tovushlari uchun

Ten little fingers,

Ten little eyes,

Ten little toes,  
Two little ears,  
And one little nose.

That shines so bright,  
One little mouse  
To kiss Mummy «Good night».

### Feet

[dʒ], [ p] tovushlari uchun

When I lift my two feet,  
I can jump, jump, jump

My feet hit the ground  
With a bump, bump, bump.

### I have two legs

[w] tovushi uchun

I have two legs  
With which I walk.  
I have a tongue  
With which I talk.

And with it too  
I eat my food  
And tell  
If it is bad or good.

### Little Bird

[ə:], [ai], [i-i:]

Fly, little Bird, fly,  
Fly into the blue sky!

One, two, three,  
You are free!

### 2.5. Nazorat mashqlari

Maqsad: Bolalarning dialog va monolog nutq malakalarini hosil qilish, so‘z birikmalari bilan gap tuza olish, yangi so‘zlarni o‘yinli vaziyatlarda qo‘llay olishga erishish.

1. O‘qituvchi bolaga narsalarni ko‘rsatganda, ularning nomlarini ingliz tilida aytishni taklif qiladi.
2. Berilgan so‘zlar bilan gap tuzishni so‘raydi.
3. O‘qituvchi yangi so‘zlarni nutqiy namuna tarkibida aytishni so‘raydi.
4. O‘qituvchi narsa bilan harakat bajarishga buyruq beradi.
5. O‘qituvchi bolani qo‘lida nima borligini aytishni so‘raydi.
6. O‘qituvchi savollar bilan yordam berib, bola qo‘lidagi narsani tasvirlashni so‘raydi.
7. O‘qituvchi muayyan narsani mustaqil tasvirlashni so‘raydi.

8. O'qituvchi o'zining va do'stining uyida nimalar borligini aytib, ularni tasvirlashni so'raydi.
9. O'qituvchi bolalardan bir-birlariga savol berishni so'raydi.
10. O'qituvchi yangi namunani tushuntirib, uni yangi nutqiy vaziyatda qo'llashni so'raydi.
11. O'qituvchi bolalarga mikromatnni beradi, ona tilida unga savollar qo'yadi, so'ngra matnda ingliz tilida savollar qo'yadi va javob berishini talab etadi.
12. O'qituvchi sodda gap aytadi, bolalar esa o'zlari gap tuzib hikoyani davom ettiradilar.

## **BIRINCHI YARIM YILDA YAKUNIY NAZORAT O'TKAZISH UCHUN NUTQIY VAZIYATLAR**

Maqsad. Dialogik birliklarda talaffuz va leksik ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini aniqlash.

Bu ishni bolalar just bo'lib bajarishadi, o'qituvchi bolalarga savollar bilan yordam beradi, bola qiyalgan taqdirda, xatti-harakat yoki narsalarni ko'rsatish orqali yordamlashish mumkin.

O'qituvchi bolalarga o'yin vaziyatni taklif qiladi: «Men o'rtog'im Tomnikiga mehmonga keldim». O'qituvchi röllarni taqsimlab beradi va aytadi: Tom faqat ingliz tilini biladi, shuning uchun u bilan faqat ingliz tilida gaplashish kerak. Salomlashish mashqi bajariladi.

O'qituvchi «mehmonga» Tomdan o'yinchoqlarini ko'rsatishni so'rashni buyuradi. Bunda bolalar bir-birlariga savollar berishlari kerak: Is it your frog/dog/bear? Have you a dog/a cat at home? How many toys have you got? Is this toy big/small? What colour's the dog? Is it Bobir's toy?

O'qituvchi «Bu nima?» degan savolni berishini so'raydi (What is it?). Bunda u qushlar va hayvonlar qanday gapireshlarini ko'rsatadi, boshqa bolalar esa uni topishadi.

O'qituvchi «Hayvonot bog'ida» o'yin vaziyatini taklif etadi: hayvonat bog'iga boramiz, siz turli hayvonlarni ko'rasiz. O'qituvchi hayvonlar va qushlar rasmlarini ko'rsatadi, bolalar ular bilan salomlashib, nomlarini aytishlari kerak: It's a bear/a kangaroo/an elephant.

O'qituvchi bolalarga savol-javob mashqini taklif etadi: unda bolalar qush va hayvonlar haqida gapiradilar (rasmlardan foydalanishadi).

O'qituvchi hayvonlar bilan ingliz tilida xayrashishni so'raydi.

## BIRINCHI YILDA YAKUNIY NAZORAT O'TKAZISH UCHUN NUTQIY VAZIYATLAR

1. O'qituvchi o'yin vaziyatini taklif etadi: hozir biz oziq-ovqat magaziniga boramiz, so'ng sabzavotlar bo'limiga o'tamiz, u erda nimalar sotilayotganini ko'ramiz. Bolalar o'z munosabatlarini bildirishlari kerak: Let's go to the shop. – With pleasure/Let's go/It's fine.

2. O'qituvchi flannelegrafga rasmlarni bittadan yopishtiradi, bolalar rasmida nimalar tasvirlanganini gapirib beradilar: It's porridge/meat/bread. It's carrot/pear/grape.

3. O'qituvchi bolalarning nimalarni yaxshi ko'rishlarini bilish uchun savol-javob mashqini uyushtiradi: What do you like? – I like porridge/soup. Do you like porridge? – No, I don't like porridge/Yes, of course.

4. O'qituvchi «Magazinda» o'yin vaziyatini taklif qiladi: sotuvchi bilan salomlashib, nima xarid qilishlarini inglizcha aytishlari kerak. O'qituvchi sotuvchi va xaridor rollarini taqsimlab beradi.

– Good morning !

– Good morning !

I like bread / I want to buy bread.

Take the bread, please.

Thank you.

You are welcome.

5. O'qituvchi hayvonot bog'iga borishni taklif etadi. Ushbu nutqiyl vaziyatda bolalar qay darajada bir-birlari bilan hayvonlar tana a'zolari haqida savol-javob qilishlarini tekshirib ko'rish mumkin.

6. O'qituvchi hayvonlarni ovqatlantirishi bolalarga buyuradi, hayvonlar esa ularga rahmatnoma bildirishlari kerak. – Here you are bananas (a monkey)/meat (a tiger)/–Thank you.

7. O'qituvchi o'yin vaziyatini uyushtiradi. Bolalar bir-birlarinkiga mehmonga keladilar va oila haqida savollar beradilar: – Where is your mother? – She is out.

Have you got a brother? – Yes, I have got two brothers.

Are there toys in your room? – Yes, there are many toys.

8. O'qituvchi bolalarga stol atrofiga o'tirishni so'raydi, ulardan biri mehmonga biror narsa taklif qiladi, boshqasi esa rahmat aytish yoki biror narsa so'rashi kerak:

– Tea, Sabina ?

– Would you like sweets?

- Yes, please. Thank you.
  - You are welcome.
  - Oh, sorry.
  - That's OK.
9. O'qituvchi bolalarga bir-birlari bilan hayrashishni taklif etadi.

- No, thank you.
- I want a cup of tea.
- Here you are.
- Thank you.

## **TAYYORLOV GURUH BOLALARI MONOLOG NUTQ MALAKALARINING SHAKLLANGANLIGINI NAZORAT QILISH UCHUN TOPSHIRIQLAR**

- 1.O'qituvchi o'zini tanishtiradi va bolalarga o'zi va oilasiga taalluqli savollar beradi (bolalar javob beradilar).
- 2.O'qituvchi bolaning qayerda yashashini va xonasini tasvirlab berishni so'raydi ( savollar bilan yordam beradi).
- 3.O'qituvchi boladan bog'chada nima qilishni yaxshi ko'rishini gapirib berishni so'raydi (nutqiy namunalarni tayanch sifatida taqdim etishi mumkin).
- 4.O'qituvchi hozir qaysi fasl ekanligini va boshqa fasllar haqida gapirib berishni so'raydi. O'qituvchi matnning birinchi gapini aytadi, bolalar esa hikoyani davom etiradilar.
- 5.O'qituvchi matnda tasvirlangan hayvonlarni nomlarini aytishni so'raydi: It's a frog. It is not a frog, the frog hasn't a tail.  
O'qituvchi javob namunalarini berishi va harakatlar bilan hayvonlarni tasvirlovchi gaplarni aytib berishi mumkin.  
 a/I am green. I have a tail. I am in the water, I can swim.  
(a crocodile)  
 b/ I am grey. I can run. I eat rabbits. (a wolf)  
 c/ I am brown. I can climb. I like honey. (a bear)  
 d/ I am little. I can fly. I sing songs. (a bird)

**Chet til o'qitish metodikasidan seminar mashg'ulotlari  
mavzulari bo'yicha taxminiy taqsimoti**

No	Seminar mavzusi	Soatlar soni
1	5-6 yoshli bolalarning psixofiziologik xususiyatlari 1. Katta va tayyorlov guruh bolalarining psixofiziologik xususiyatlari. 2. Chet tilni erta o'qitishning psixologik shart-sharoitlari (bolalar faoliyati turlari). 3. Ushbu yosh davrida og'zaki nutqning psixologik tavsifi.	4
2	O'yin o'tkazish nazariyasi 1. O'yinni tashkil etish nazariyasi. 2. Chet til o'rgatish jarayonida o'yinlardan foydalanish metodikasi.	4
3	5-6 yoshli bolalarga chet til o'rgatish 1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida chet til o'qitishni tashkil qilish. 2. Chet til mashg'ulotlarini o'tkazishda qo'llaniladigan metodik usullar.	4

**Seminar mashg'ulotlari  
1-mashg'ulot**

Katta va tayyorlov guruh bolalarining psixofiziologik xususiyatlari  
Muhokama uchun savollar:

5 yoshli bolalarning psixofiziologik xususiyatlari.

6 yoshli bolalarning psixofiziologik xususiyatlari.

Bolalik davrida og'zaki nutq malakalari shakllanishining psixologik xususiyatlari.

Adabiyotlar:

1. Белкина В.Н. и др. Дошкольное обучение и развитие. – Ярославль, 1997.

2. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1991.

3. Запорожец А.В., Маркова А.А. Основы дошкольной педагогики. – М.: 1980.

4. Леонтьев А.А. Психологические предпосылки раннего овладения иностранном языком // ИЯШ. – 1985. – № —. – с. 24-29.
5. Мухина В.С. Психология дошкольников.– М.: Просвещение, 1975.
6. Поддъяков Н.Н. Умственное воспитание дошкольников.– М.: Педагогика, 1972.
7. Возрастная и педагогическая психология.– М.: МГУ, 1992.
8. Панько Е.А. Учителю о психологии детей дошкольного возраста.– М.: Просвещение, 1988.
9. Стоунс З. Психопедагогика. Психологическая теория и практика обучения.– М.:1984.

### **Mashg‘ulot mazmuni**

Bolaning 5-6 yosh davriga xos fiziologik va psixik xususiyatlar ta’lim-tarbiya metodlarining mazmunini belgilab beradi.

*Katta guruh.* Hayotining oltinchi yilida bolalar serg‘ayrat bo‘lishadi, ular asosiy harakatlarni muvaffaqiyatli ravishda egallab oladilar. Ular faoliyati shaklan va mazmunan rang-barang bo‘lib, boyib boradi. O‘yin bilan bir qatorda faoliyatning produktiv (sermahsul) turlarining rivojlanishi davom etadi. Faoliyat turlaridan mehnat va ta’lim muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu davrda bolalarda xulq-atvorni ixtiyoriy ravishda boshqarish darajasi sezilarli darajada o‘sadi. Ayniqsa o‘quv faoliyati shart-sharoitlari uchun o‘z-o‘zini boshqara olish katta ahamiyat kasb etadi. Bunday boshqaruv bolaning diqqati, xotirasi, tafakkuriga ta’sir qiladi. Diqqati barqarorlashib ixtiyoriy xotiraning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Bolalar she’rlar, matnlar, tez aytishlarni yodlar ekanlar, ularni takrorlashni yoqtiradilar. Ixtiyoriy ravishda eslab qolish malakasining rivojlanishi amaliy faoliyatda o‘zlashtirilishi o‘quv materiali bilan bog‘liqidir.

Tevarak-atrofni kuzatish va maqsadli sensor idrok orqali bolalarda idrokning takomillashuvi kuzatiladi. Hayotining oltinchi yilida bolalar nafaqat predmetlarning xususiyatlari, balki ularning xilma-xilligini farqlay oladilar.

Jiddiy o‘zgarishlar makonni bilishda kuzatiladi. Bolalar vaqt, fasllar almashinuvi yuzasidan tasavvurlarga ega bo‘ladilar.

Aniq obrazli tafakkur jadal rivojlanib boradi, ular asosida umumlashgan bilimlar shakllanadi. Bolalarda nutqning hamma tomonlari rivojlanadi, talaffuz ravonlashadi, iboralar mukammallashib boradi. Ular ona tilining grammatik tuzilishini egallab, ulardan erkin

foydalana oladilar; lug‘at boyliklari kengayib boradi. Bolalarning o‘z fikrini bildira olishi bog‘lanishli xarakterga ega bo‘ladi, ular kichik syujetli hikoyalari tuza oladilar.

Bolaning irodasi rivojlanan boshlaydi: u o‘z xohish-istiklarini chegaralashni, aniq maqsad qo‘yishni, o‘z harakatlarini to‘g‘ri baholashni, o‘z maqsadlariga erishishda to‘siqlarni yengishni o‘rganadi. Bu yoshdagagi bolalar uchun didaktik, harakatli va syujetli o‘yinlarning ahamiyati katta. Ularda yorqin ifodalash vositalarini anglash va shakllantirish jarayoni davom etadi. Bularga kuyning ritmikasi, turli musiqa asboblarining ohangi, yangrash kuchi va she’rlarning ritmikasi kiradi.

Tayyorlov guruhi. Bolaning olti yoshida organizmning jadal yetilishi, uning morfologik va funksional rivojlanishi davom etadi. Bolaning nutqi jadal rivojlanan borib, uning faoliyati va xulqiga jiddiy ta’sir eta boshlaydi. Bu esa ularga murakkabroq bilim va ko‘nikmalarni egallashda, o‘rganuvchanlik faoliyatini shakllantirishda kerakli neyrofiziologik sharoitlarni yaratadi.

Etti yoshga borganda bolada uzluksiz samarali faoliyatning davomiyligi 25-30 minutgacha etadi. Bu yoshda bolada kattalar bilan shaxsiy muloqotga va ishchonchli munosabatlarga kirishishga intilish kuchayadi. Kattalar esa uning xohish va istaklariga qarab u bilan munosabatda bo‘lishlari, muloqotning umumiy psixologik maydonini topishlari kerak.

Tayyorlov guruhida bolalar har-xil faoliyat turlaridan foydalananadilar. Ular orasida mashg‘ulotlarning roli kuchayib, bu jarayonda bolalar anchagina aniq, umumiylar bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Ular asosida tinglash, kattalarning talablarini bajarish, o‘z harakatlarini qoidalar asosida amalga oshirish, og‘zaki ko‘rsatmalarga yoki ko‘rgazmali obrazlarga bo‘ysunish kabi malakalar shakllanadi. Bo‘lalar asta-sekin o‘z harakatlarini berilgan namunaga asosan nazorat qilishni, o‘z ishlarining natijasini to‘g‘ri baholashni va yo‘l qo‘yilgan xatolarini mustaqil ravishda tuzatishni o‘rganadilar. Bu davrda bolalarda jamoa bo‘lib ishslash va topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqish kuchayadi.

Syujetli-rolli o‘yinlar bolalar uchun o‘ziga xos hayot maktabi bo‘lib qoladi. Didaktik o‘yinlarda predmetlar dunyosi haqidagi bilimlar va aqliy harakatlar mukammallashadi. Qoidalari-harakatli o‘yinlarda shaxsning jamoa manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish kabi muhim emotsiyonal sifatlari shakllanadi.

6-7 yoshli bolalarning bilish faoliyati takomillasha boradi. Tarbiya ham maqsadli, aniq va umumiyligini bo'lib boradi. Ularni muntazam ravishda predmetlar yoki ularning tasvirlari bilan tanishtirish natijasida aniq maqsadga yo'naltirilgan kuzatuvchanlik paydo bo'ldi.

Shuningdek bolalarning fonematik eshitish qobiliyati rivojlanadi. Ular ona tilidagi hamma tovushlarni farqlab, so'z tarkibidan ularni ajrata oladilar; nutq tezligi va ovozning baland-pastligini o'zgartira oladilar. Musiqani his etish qobiliyati ham kuchayib boradi.

Shu bilan birga aqliy faoliyatning imkoniyatlari ko'payadi. Bolalarning olam haqidagi tasavvurlari ancha keng, xilma-xil va umumlashgan bo'ladi. Bu davrda predmetlar bilan turli harakatlarni amalga oshirish mumkin.

Bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda sxema va modellardan foydalanish katta ahamiyatga ega, chunki ular predmet va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalab beradi. Maqsadli o'qitish natijasida esda saqlash va esga tushirish qobiliyati rivojlanadi. Bolalar eslab qolishning ba'zi usullaridan foydalana boshlaydilar: masalan, ma'lumotlarni mazmuniga qarab guruhash, yodlanadigan narsalarni qayta-qayta takrorlash va b. Eng muhimmi, eslab qolish jarayoni nimagadir asoslanishi va bola uchun zarur bo'lgan natijaga olib kelishi darkor. Maktabgacha yosh davrida bolalarda xotiraning ixtiyorsiz turi ustun bo'lib, qo'yilgan maqsad aniq bo'lmaydi. Psixologlarning fikricha, bolaning xotirasi uning qiziqishi bilan bevosita bog'liqdir. Haqiqatdan ham bola yorqin, g'ayrioddiy, o'ziga jalg qiluvchi narsalarni oson va uzoq vaqtgacha eslab qoladi. Shuningdek bola uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan narsa bu so'zdir.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, bolalar o'zgalar nutqini yaxshi eslab qolishi mumkin, lekin o'z nutqi esa uning xotirasida bir umr saqlanadi.

Tadqiqotchilar ta'kidlashlaricha, o'yin o'tkazish hamda bola hulqining tengdoshlari tomonidan baholanishi qo'yilgan maqsadga tezroq erishishga yordam beradi. O'yin nafaqat bolaning eng sevimli mashg'uloti, balki uning asosiy faoliyat turidir. U orqali bola o'qish faoliyatiga oson moslashadi. Har bir o'yining qoidasi bor ekan, bola unga o'z e'tiborini qaratishi, o'z xohish-irodasini ham bo'ysundira olishi kerak.

Bog'cha yoshidagi bolalar rasm chizishni juda yaxshi ko'radilar. Ularning rasmlarida fikrlash qobiliyatining aniqligi, obrazliligi o'z aksini topadi. Bu jarayon bolaning idroki, xotirasi, tafakkuri, tasavvuri

va shaxsiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Unda bolaning qiziqishlari, temperamenti namoyon bo'ladi. Bog'cha bolalari juda hissiyotga berilgan bo'ladilar, ularning faolligi ham aynan shunga bog'liqdir. Faoliik bolaning o'qituvchi va tengdoshlari bilan bo'ladigan ijobiy muloqot jarayonida to'la namoyon bo'ladi.

Bolaning his-tuyg'ulariga ta'sir etishning eng samarali vositalardan biri musiqa bo'lib, u shaxsni psixik ug'otish kuchiga ega. (L.S.Vigotskiy, 1991 va b.).

Musiqa bolada hissiyotlarning murakkab dunyosini ochib beradi. His-hayajonlar esa uning kayfiyatiga mos bo'lgan taassurotlar, fikrlar, obrazlarni ifoda etadi. Psixologlarning fikricha, har bir his-tuyg'uda nafaqat tashqi ifoda, balki ichki ifoda ham aks etadi. Bu bolaning fikrlashida, taassurotlarida seziladi.

5-6 yashar bolalarning psixofiziologik xususiyatlariga asoslanib shuni aytish mumkinki, ularning potentsial imkoniyatlari juda katta.

7 yoshga borib bolaning aqliy rivojlanishi etarli darajada bo'ladi. Bu ularga murakkab bilim, ko'nikma va malakalar egallash imkoniyatini yaratadi. Bu esa MTMdA o'quv-tarbiya ishlarini takomillashtirishga asos bo'ladi.

Shunday qilib, bolada yangi faoliyatga, ya'ni o'qishga, yangi bilim olishga intilish, ongli ravishda o'z xuqagini anglash, qoidalarga bo'ysunish, qo'yilgan talablarni o'zi xohlaganida emas, balki kerakli paytlarda bajarish, aqliy tayyorgarlik ( idrok, mantiqiy fikrlash, ravon nutq) rivojlanib boradi.

Bolaning aqliy rivojlanishi nafaqat atrof-muhit haqidagi tasavvurlarining kengayishi bilan, balki ularga ba'zi, ma'lum ma'noda, mavhum bilimlarning taqdim etilishi bilan ham bog'liq. Axloq-odob, tasavvurlar sistemasi, ahloqiy me'yorlar, ba'zi tarixiy tasavvurlar shular jumlasidandir.

Bu holda o'qish nafaqat bilim olish, balki shaxsning u yoki bu fazilatlarga ega bo'lish jarayoniga ham aylanadi. Bolaning aqliy rivojlanishini uning ruhiyatidan, qiziqishlarining xilma-xilligidan, uning his-tuyg'ularidan va boshqa ma'naviy tomonlaridan ajratib o'rganib bo'lmaydi.[4]

O'qitish jarayonida bolalarda nafaqat bilim olish, balki o'qishga bo'lgan istak, qiziqish, shuningdek mustaqillik, uyushqoqlik, matonat kabi xislatlar ham rivojlanadi. Shuning uchun ham aqliy rivojlanish ahloqiy rivojlanish bilan uzviy bog'lanadi.

Hozirgi kunda eng dolzARB masalalardan biri – maktabgacha ta’lim muassasalarida chet tilni o’rgatishdir. Bu borada eng dolzARB vazifa – kommunikativlikka asoslangan o’qitishni tashkil qilib, mazmuni va metodikasi jihatidan bolalarga mos bo’lgan mashg’ulotlarning mutazam ravishda olib borishini ta’minlashdan iborat.

Psixolog va pedagoglarning fikricha, bola organizmining imkoniyatlari juda keng, ammo chet tilni o’rgatish jarayonini ma’lum bir maqsadga yo’naltirish kerak, chunki biz hali o’sayotgan organizm, miyasi to’liq rivojlanib bo’lmagan, ishlash qobiliyati esa cheklangan bola shaxsi bilan ishlaymiz. Shuni unutmasligimiz lozimki, bu yoshdagi bola aytigan narsani tushunishi, bajarishi, o’zlashtirishi mumkin, ammo qanday jismoni va ruhiy mashaqqatlar evaziga! Psixologlarning muhim bir fikrini esda tutishimiz kerak: pedagog faoliyatning asosiy turiga e’tiborini qaratishi kerak (bola rivojlanishining u yoki bu davrida). Faoliyat turi quyidagi belgilarga ega bo’ladi: unda bolaning atrof-muhitga nisbatan munosabati ifodalanadi; ruhiy jarayon va xususiyatlarning shakllanishi jadallik bilan ro’y beradi; va nihoyat, keyingi davrlarga xos bo’lgan faoliyat turlari shakllanadi. Shunday qilib tarbiyalanuvchining asosiy faoliyati – o’yin jarayonida yangi faoliyat turi – o’qish faoliyati shakllanadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarni o’qitish jarayonida ularning imkoniyatlarini asta-sekin kengayishini e’tiborga olish kerak. Bular: atrofdagilar bilan munosabatlarning yangi shakllari, yangi ehtiyojlarning paydo bo’lishi, bilim olish faoliyatining mazmunan kengayishi. Bilim darajasining ko’tarilishi aqliy faoliyatning yangi shakli – amaliy mashg’ulotni bajarishni talab etadi. Amaliy mashg’ulotlar birinchi navbatda bolaning bilim olishiga, shuningdek, olgan bilimlarini hayotga tadbiq etishga yordam berishi kerak.

Psixologiyada (A.A.Leontyev, D.B. Elkonin, S.A. Lebedeva) tadqiqotlarida bolalarning fikrlashi ikki xil – ko’rgazmali-harakatli va ko’rgazmali-obrazli bo’lishi isbotlangan.

Ko’rgazmali-harakatli fikrlashning asosiy xususiyati – bu uning amaliy faoliyat bilan uzviyligidir. Uning ahamiyati shundaki, u boshqa murakkab fikrlash shakllarining yaratilishiga asos bo’ladi (Poddyakov N.N., 1972). Asta-sekin hayot bola oldiga yangidan yangi vazifalarni qo’yadi. Bola xato va tuzatishlar yo’lidan boradi. Va, nihoyat, mustaqil echimga keladi. Shunday qilib, ko’rgazmali-harakatli fikrlashning ikki turi shakllanadi: 1. Amaliy natija olmasdan biror bir ob’ektni o’rganish. 2. Obyektni kerakli holatga tushurish. Ilmiy izlanishlar

(A.V.Zaporojets, N.N.Poddyakov) isbotlaganidek, fikrlashning aniq jarayoni har ikki tur uzviyiligidagi amalga oshiriladi.

Samarali faoliyatning rivojlanishi, bilimlarni keng miqyosda ishlatish ko'rgazmali-obrazli fikrlashning rivojlanishiga asos bo'la oladi. Bu fikrlash shakli shunisi bilan xarakterlik, unda bola ba'zi vazifalarni amalga oshirishda amaliy mashqlarni bajarmasligi ham mumkin. Predmetlar, ularning xususiyatlari va munosabatlarini ochib beruvchi usullar mavjud. Ko'rgazmali-obrazli fikrlashni rivojlantirish quyidagilarni talab qiladi: 1. Bolaarning xilma xil va samarali faoliyati uchun shart-sharoit yaratish. 2. O'z faoliyatini rejalashtirish imkoniyati. 3. Bola tasavvurlarining o'zgaruvchanligi, predmetlarni makon va zamon munosabatlarida ko'rish.

Aniq-obrazli fikrlashdan «og'zaki - mantiqiy - mulohazali fikrlash»ga o'tiladi. Bu ma'lumotlarni biz bolalarga chet tilni o'rgatishda asos qilib olishimiz mumkin.

## 2-mashg'ulot

### O'yin o'tkazish nazariyasi

Muhokama uchun savollar:

1. O'yinni tashkil etish nazariyasi.
2. Chet tilni o'rgatish jarayonida o'yinlardan foydalananish metodikasi.

### Adabiyotlar

1. Бондаренко А.К. Дидактические игры в детском саду. – М.: 1991.
2. Зворыгина Е.В. Комплексное руководство игрой с сюжетно-образными игрушками // Дошкольное воспитание. – 1982. – №7.
3. Иванова В.Н. Психологическое влияние детской игры. – М.: 1987.
4. Карпова С.Н. Игра и нравственное развитие дошкольников. – М.: 1987.
5. Негневицкая Е.И. Иностранный язык для самых маленьких: вчера, сегодня, завтра // ИЯШ. – 1987. – № 6.- с. 20-26.
6. Васильева М.А.(ред.). Руководство играми детей в дошкольных учреждениях. – М.: 1986.
7. Ладенко И.С. Игровое моделирование: методология и практика. – Новосибирск: 1987.
8. Эльконин Д.Б. Психологические вопросы дошкольной игры // Возрастная и педагогическая психология. – М.: 1992.

9. Короткова Н.А. Формирование предпосылок игрового взаимодействия // Актуальные проблемы воспитания и обучения дошкольников. –М.: 1985.

10. Чистякова Т.А., Чернущенко Е.М., Солина Г.И. Обучение иностранному языку в детских садах. – М.: 1964.

### **Mashg‘ulot mazmuni**

Chet tilni bog‘chada o‘rgatishda quyidagi usullardan foydalaniladi:  
(1) namoyish etish; (2) tushuntirish; (3) mashqlar bajarish.

O‘yin jarayonida ushbu usullar kompleks tarzda qo‘llanadi. O‘yin boshida bolalarning vazifasi o‘yin tartibini eslab qolishdan iborat. So‘ngra ular mashq bajarishadi. Qaysi o‘yinni tanlamaylik, qaysi faoliyat turini o‘rgatmaylik (gapirish, tinglab tushunish), ularning asosiy qismini mashqlar tashkil qiladi.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni o‘qitishda quyidagilar keng qo‘llanadiladi:

Talaffuz ustida ishlash.

O‘yinchoq yoki rasm bilan ishlash.

She‘r yodlash va deklamatsiya qilish.

Qo‘shiq yodlash, yakka va xor bo‘lib ijro etish.

Kichik hikoya, she‘r va qo‘shiqlarni sahnalashtirish.

Qo‘g‘irchoq o‘ynash.

Harakatli o‘yinlar.

Harakatsiz o‘yinlar.

Tematik o‘yinlar.

Ijodiy o‘yinlar.

Ertak o‘ynash.

Flanelegraf bilan ishlash.

Jonli rasmlar.

Kichik situativ dialoglar tuzish.

O‘qituvchining hikoyasini rasm asosida tinglash.

O‘qituvchining hikoyasini ko‘rgazmasiz tinglash.

O‘qituvchining sharhlarini tinglab, multfilm tomosha qilish.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarga chet tilni o‘rgatishda quyidagi usullardan keng foydalaniladi: o‘qituvchi ketidan xor bilan va yakka tartibda takrorlash, qo‘shiqlarni xor yoki yakka tartibda ijro etish, she‘r deklamatsiya qilish, o‘yin tashkil etish, rasm chizish, maket yasash va h.k.z.

Maktabgacha yosh davri bolalariga chet til o'rgatish jarayonida o'yinlarni loyihalashtirishga qo'yiladigan talablar:

O'yin umumiy mazmun yoki asosiy mavzuga ega bo'lishi kerak. Mazmun va mavzu o'quv materialidan kelib chiqadi.

Har qanday o'yin zaminida taqlid va o'yin modeli yotadi. Taqlid (imitatsiya) modeli o'xshatish uchun tanlangan fragment (parcha)ni tasvirlaydi. Bu fragment dars mavzusiga oid bo'lishi kerak.

Bolalar turli rollarga kirib, (mas. hayvonlar, farzand, onalar, sotuvchi va sotib oluvchilar va hokazo) turli vaziyatlarni ijro etib berishadi (ertakdan va hayotdan olingan). Shuni ta'kidlash joizki, bolalar buni maroq bilan bajarishadi, chunki ular uchun o'yin o'ynash – bu tabiiy hol! O'yin jarayonida ular yangi so'zlarni, iboralarни mustahkamlaydilar, turli kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradilar, ijodiy fikrlashni o'rganadilar, tengdoshlari bilan muloqotda o'ziga xos shaxsiy xususiyatlar namoyon bo'ladi, faol o'qitishning shakl va usullariga bo'lgan psixologik to'siqlarni yengadilar.

Imitatsiya modeli bolalar uchun tushunarli bo'lgan hayotiy haqiqat fragmentini namoyon etadi (masalan: hayvonlarning tovush chiqarishi).

*O'yin modeli* – ishtirokchilarning imitatsiya modeli bilan bo'lgan o'quv faoliyatini ta'riflash usulidir. Bu bolalarning ingliz tilidagi nutqiy faoliyatida ijtimoiy, muloqot (kommunikativlik)ni ta'minlaydi.

Endi o'yin modeli va imitatsiya modelining tarkibiy qismlarini ko'rib chiqamiz.

*O'yin predmeti* – bu o'yin ishtirokchilari faoliyatining predmeti, masalan, «At the zoo» nutq vaziyatini olaylik. Bu jarayonda til va nutq materiali taqdimoti, uni mashq qilish, qo'llash amalga oshiriladi. *Stsenariy* – bu o'yin jarayonining asosiy elementi. Unda aproksimatsiya, birgalikdagi nutq faoliyati va motivatsion ehtiyojlar printsiplari o'z aksini topadi. Masalan, «Who are you?» mavzusi stsenariysida yangi nutq namunasi va yangi so'zlar taqdim etiladi.

Ishtirokchi bolalarning vazifalari. Bolalar o'zlarini hayvon nomlari bilan atashlari, ulardek ovoz chiqarishlari kerak ( yo'lbars –rrrrr, ilon – θ-θ-θ (sssss)).

O'qituvchi roli – u faol ishtirokchilardan biri sifatida o'z zimmasiga birorta hayvon rolini olib bolalarning ingliz tilida gapirishlarini ta'minlaydi. O'yin qoidalari: berilgan hayvonlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniq ko'rsatib berish.

O‘yin o‘tkazilganda bolalarning e’tiborini fikrlashga qaratish kerak: bolalarga nimanidir o‘zgartirishni, harakat qilishni, turli amallar bajarishni talab qiladigan vaziyatlarni tashkil etish kerak.

## KO‘RSATMALAR

Chet tilni o‘rgatish metodikasida o‘qituvchilar tayyorlash jarayonida imitatsiya o‘yinlaridan foydalanish kerak. Bu o‘yinlar og‘zaki o‘quv malaka va ko‘nikmalarining rivojlanishiga olib keladi; (maxsus fonetik, leksik, grammatik o‘yinlarni tuzish va tashkil etish) hamda bolalar bog‘chasida pedagogik muomalani mustahkamlaydi.

O‘yinlarda maktabgacha tarbiya muassasalari uchun ishlab chiqilgan chet til o‘qitish dasturidan foydalanish lozim. Shuningdek, harakatlar ketma-ketligini namoyon etuvchi chizmadan foydalanish kerak.

Chet til o‘qitish metodikasi mashg‘ulotlarida talabalar suhbatlar, o‘yinlar, mustaqil mashqlar tashkil etish, ko‘rgazmali qurollar yasash kabilarni bajarishadi.

Ma‘lumki, bolalar uchun eng qulay faoliyat – bu o‘yin. Chet til o‘qituvchisi bolalarning materialni o‘zlashtirish va chet tilda muloqot qilish faoliyatini boshqarib turishi kerak.

Talabalar quyidagi sxemaga asoslanib dars ishlansasi tayyorlashlari kerak.

Vaqt	O‘qituvchi faoliyati	Bolalar faoliyati
Fonetik mashg‘ulot (2min.)	She‘r yoki qo‘shiq aytish	
Kirish (4min.)	Yangi so‘zlar va ularning talaffuzini o‘rgatishda qo‘llaniladigan predmetlar namoyishi	O‘qituvchidan so‘ng takrorlaydilar (yakka va xor bo‘lib)
Maqsadni amalga oshirish (2min.)	O‘yinli nutq vaziyatini yaratish	Bolalar tinglab tushunadilar; predmet nomlarini aytadilar

Nutq namunasini qo'llash (6min.)	Nutq namunasi namoyishi; bo'lishsiz va so'roq shakllarni o'rgatish	Takrorlaydilar, savollarga javob beradilar
Mustahkamlash (5min.)	So'zlarni mustahkamlash bo'yicha topshiriq; nutq namunasini qo'llagan holda savol va buyruqlar berish	Berilgan nutq namunasida so'zlarni mustahkamlab, harakatlarni bajaradilar
Qo'llash (8min.)	Ilgari o'rganilgan nutq namunalarini qo'llash yuzasidan vaziyat tashkil qilish	Nutq namunalarini biriktirib aytadilar
Yakunlash (3min.)	Bolalarni rag'batlantiradi, ularni maqtab, tashakkur bildiradi.	Tinglaydilar, so'raydilar

### 3-mashg'ulot 5-6 yoshli bolalarga chet til o'rgatish metodikasi

Muhokama uchun savollar.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida chet til o'qitishni tashkil qilish.

Chet til o'qitish mashg'uloti o'tkazishda qo'llanadigan metodik usullar.

#### **Adabiyotlar**

1. Воронина Г.И., Трунова О. Методические рекомендации по раннему обучению ИЯ в детском саду и начальной школе в 1991-1992 учебном году // ИЯШ.- 1991.- №5.
2. Глухарева Е.А. Иностранный язык в детском саду (в помощь воспитателю) // ИЯШ.- 1991.- №5.
3. Давыдова М.А. Деятельностная методика обучения иностранному языку. – М.: 1990.
4. Дворник М.В., Чуйкова С.Л. Игра и игровая ситуация на начальной ступени обучения иностранному языку // ИЯШ.- 1990.- №6.

5. Дроздова Т.И. Опоры-символы и опоры рифмовки на уроке английского языка в 1 классе // ИЯШ.– 1990.– №6.
6. Кувшинов В.И. Игры на занятиях по английскому языку // ИЯШ.– 1993.– №2.
7. Кадырова Ф.Р. Дидактические игры для обучения детей русскому языку.: Пособие для воспитателей дет/садов.– Т.: Укитувчи, 1992.
8. Кадырова Р.М. Обучение детей дошкольного возраста разговорной речи в национальных детских садах Узбекистана.: Пособие для воспитателей старших и подготовительных групп.– Т.:Укитувчи, 1992.
9. Лагунова С.В. Деятельностный аспект осознанного раннего овладения грамматикой английского языка // ИЯШ.– 1997.– №3.
10. Никитенко З.Н. Обучение произношению детей 6 леток в курсе английского языка для 1 класса // ИЯШ.– 1992.№1.
11. Никитенко З.Н. Технология обучения лексике в курсе английского языка для детей 6 лет в 1 классе средней школы // ИЯШ.– 1991.– №4.
- 12.Никитенко З.Н. Технология обучения грамматике в курсе английского языка детей 6 лет в 1 классе средней школы // ИЯШ.– 1992.– № 5-6.
13. Рязанова И.С. Обучение английскому языку детям младшего возраста // ИЯШ.– 1992. № 1.
14. Тумакова Г.А. Ознакомление дошкольника со звучащим словом.– М.:Просвещение, 1991. Mashg‘ulot mazmuni 3(3.1., 3.2.) bo‘limda yoritilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR O'ZBEK VA RUS TILLARIDA

1. Биболетова М.З. Обучение грамматической стороне говорения на английском языке учащихся 1-3 классов общеобразовательной школы. – М. 1985.
2. Бужинский В.В. Работа над английским произношением на начальной ступени коммуникативного обучения иноязычному говорению //ИЯШ, 1991, №4.
3. Демьяненко М.Я. и другие. Обучение произношению неродного языка //Методразработка и теоретические основы. – Киев, 1973.
4. Дроздова Т.И. Опоры-символы и опоры рифмовки на уроке английского языка в 1 классе//ИЯШ, 1999, №6.
5. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi.– Т.: O'qituvchi, 1996.
6. Jalolov J., Ahmadxo'jayeva A., Saidniyozova X. Pedagogika institutlari maktabgacha tarbiya fakultetlarining qo'shimcha mutaxassisligi xorijiy til bo'lgan bo'limlar uchun o'quv dasturi (ingliz, nemis, frantsuz tillari).–Toshkent: Respublika ta'lim ilmiy-metodika markazi. 1996.– 25b.
7. Заремская С.И., Слободчиков А.А. Развитие инициативной речи учащихся. – М. 1983.
8. Колиева Н.Ф. Английский язык для дошкольников. – Северо-Осетинский Институт усовершенствования учителей. 1968.
9. Лагунова С.В. Деятельностный аспект осознанного раннего овладения грамматикой английского языка//ИЯШ, 1997, № 3.

10. Матецкая Е.И. Речевая игра на занятиях английского языка в детских садах: Автореф. канд. дис. ... пед наук. – Москва, 1971.
11. Махкамова Г.Т. Формирование навыков и умений устной иноязычной речи у дошкольников 5-6 лет (на материале английского языка): Дис. ... канд. пед наук. – Ташкент, 2004.
12. Натальина А.С. Содержание обучению английскому языку детей дошкольного возраста (минимально-коммуникативный уровень). – Москва, 1983.
13. Негневицкая Е.И. и др. Обучение английскому языку в детском саду. – Москва, 1987.
14. Никитенко З.Н. Обучение произношению детей 6 леток в курсе английского языка для 1 класса//ИЯШ, 1992, №1.
15. Никитенко З.Н. Технология обучения грамматике в курсе английского языка детей 6 лет в 1 классе средней школы//ИЯШ, 1992, № 5-6.
16. Никитенко З.Н. Технология обучения лексике в курсе английского языка детей 6 лет в 1 классе средней школы//ИЯШ, 1991, № 4.
17. Сенкевич Е.С. Песня на уроке английского языка//ИЯШ, 2002, № 1.
18. Сергеева О.Е. Использование символов в работе с дошкольниками для формирования лексических и первичных грамматических умений на иностранном языке//ИЯШ, 2002, № 6.
- 19.Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – T.: Sharq, 2003.

## **ЛИТЕРАТУРА НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ**

1. Carter R. Vocabulary and language teaching. – London and New York. 1988. – P. 63-70.
2. Khairi Iswan Abdullah. Teaching reading vocabulary/ From theory to practice.. English Teaching Forum. V 31/ N 3 .July/1993. – P. 10-12.
3. Klein R. Teaching young learner//English Teaching Forum. V. 31. N2 April/1993. – P. 14-17.
4. Merry P. The keywords methods and children's vocabulary learning in the classroom//British journal Education Psychology. 1980. – P. 66-123.
5. Richards J., Rodgers T. Approaches and methods in language teaching. – Cambridge University Press, 1986.
6. Tapia R. Comprehension through Pictures//English Teaching Forum. V.34 N 1. January. 1996. – P. 41-44.

## MUNDARIJA

### I QISM MAK TABGACHA (5-6) YOSHDAGI BOLALARDA INGLIZCHA OG‘ZAKI NUTQ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

I.1. Maktabgacha ta’lim muassasasi (MTM)da chet til o‘rgatishning dasturiy talablari.....	3
I.2. Inglizcha talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish.....	7
I.3. Inglizcha leksik ko‘nikmalarini shakllantirish.....	11
I.4. Bog‘cha bolalarining og‘zaki nutqida grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish.....	16
I.5. MTM bolalari og‘zaki nutqidagi xatolarni bartaraf etish usullari.....	18
I.6. Bog‘cha bolalariga tinglab tushunish va gapirishni o‘rgatish.....	21
I.7. Bog‘cha bolalarida ingliz tiliga qiziqishni uyg‘otish.....	31
I.8. Bog‘cha bolalariga ingliz tilini o‘rgatish texnologiyasi.....	32

### II QISM AMALIY O‘QUV MATERIALLARI

II.1. MTM katta va tayyorlov guruh bolalariga ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar.....	40
II.2. Maktabgacha ta’lim muassasasi bolalarining ingliz tilida og‘zaki nutq malakalarini shakllantirishga bag‘ishlangan mashg‘ulotlardan lavhalar.....	59
II.3. Ta’limiy o‘yinlar.....	68
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>90</b>

## **QAYDLAR UCHUN**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---



**JAMOL JALOLOV, GULNORA MAHKAMOVA,  
VASILA MAMADAYUPOVA, LOLA ISMATOVA**

## **INGLIZ TILI O'RGATISH TEXNOLOGIYASI**

Bosishga ruxsat etildi 17.06.10.

Qog'oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ .

Bosma tabogi 6,0. Tiraji 600. Ofset qog'oz.  
«Timez UZ». Buyurtma № 26.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi.  
700003, Toshkent sh. Olmazor ko'chasi, 171-uy.